

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*  
*UO'K: 336.221 (575.1)*

**ZIYODULLAYEV SODIQJON MAMADILLAEVICH**

**BANK TIZIMINI ISLOH QILISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI**  
**AKTIVLARINING RENTABELLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan**  
**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar:** Gadoyev So'hrob Jumaqulovich  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

## MUNDARIJA

	<b>Bet</b>
KIRISH	
I bob. TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI RENTABELLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI.....	12
1.1-§. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	12
1.2-§. Banklar aktivlarining daromad darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning qiyosiy tavsifi.....	21
1.3-§. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati.....	31
1-bob bo'yicha xulosa.....	37
II bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING RENTABELLIGI.....	41
2.1-§. Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	41
2.2-§. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligi.....	47
2.3-§. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	51
2-bob bo'yicha xulosa.....	56
3.1-§. Mamlakat tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar.....	59
3.2-§. Mamlakat tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish yo'llari.....	72
3-bob bo'yicha xulosa.....	82
XULOSA.....	86
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	94

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo bank amaliyotida tijoratijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlash va moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirishning zarur sharti sifatida tijorat banklari aktivlari rentabelligini ta'minlashning ahamiyati oshib bormoqda. G'arb davlatlari amaliyotida banklar aktivlari rentabelligini ta'minlashga ularning moliya bozorida raqobatbardoshligiga erishishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan "Deutsche Bankda (Germaniya) kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari miqdori 71,3 foizga kamaydi, mazkur davrda, Bank of Americada (AQSh) sof foydaning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 0,4 foizli punktga oshdi"<sup>1</sup>. Bugungi kunda tijorat banklarining rentabelligi, kapital yetarliligi, likvidlilik me'yori va kreditlar bo'yicha yaratilayotgan zaxira miqdori orqali tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanmoqda.

Dunyoda moliyaviy bozordagi beqarorlik va global raqobat kuchayib borishi sharoitida tijorat banklari aktivlari rentabelligini oshirish muammolariga yo'naltirilgan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklarining sof foizli spread va sof foizli marja ko'rsatkichlarining barqarorligiga erishish, bank aktivlari rentabelligini ta'minlash, tijorat banklarida risk-menejment tizimini rivojlantirish, sof foydaning oshish sur'ati bilan riskka tortilgan aktivlar hajmining ortish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, banklar faoliyatini stress-testlash amaliyotini takomillashtirish masalalari mazkur muammoga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklari aktivlarining rentabelligini ta'minlash muhim masala hisoblanadi. Buning uchun mamlakat bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasida "bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish, kredit

---

<sup>1</sup> Consolidated Statement of income 2021. [www.db.com](http://www.db.com); Consolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of income 2021. [www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com)

portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil oshishiga amal qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish"<sup>2</sup> singari vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalarni bajarishda tijorat banklari aktivlari daromadlilikini oshirish, kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik hajmini qisqartirish, tijorat banklar faoliyatida risklarni baholash va oldini olish, muddati o'tgan kreditlar salmog'ini kamaytirish bank tizimini rivojlantirish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar sifatida e'tirof etilgan.

Dissertasion tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va soha taraqqiyotiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari O.Lavrushin, E.Jukov, F.Mishkin, J.Sinki, E.Dolan, K.Barltrop, O.Xershi, V.Usoskin, D.Kornilov, E.Galiy, I.Stempovskiy, S.Urazov, M.Gorskiy, N.Semenova, I.Ivanova, A.Vasilkina, M.Bobrik, L.Gantseva, O.Voloshina, I.Letshukova, E.Dudin, S.Vayn, I.Yudina, V.Dorofeev, S.Kumok, N.Kunisina, N.Baltes, S.Xasyanova,

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон "2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида"ги фармони.

D.MakNoton va boshqa xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida atroflicha o‘rganilgan<sup>3</sup>.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva, A.Abdullayev, T.Bobakulov, O.Yo‘ldoshev, O.Sattarov, B.Berdiyarov, N.Jumayev, Z.Xolmaxmadov, A.Omonov, Sh.Ruzmetov, Yo.Mahmudalieva, F.Nasriddinov, Z.Umarova, R.Bozorov va boshqalarning ilmiy ishlarida tijorat banklarining

---

<sup>3</sup>Лаврушин О.И. Банковский менеджмент. – М.: КНОРУС, 2016. – С. 154. ; Жуков Е.Ф. Общая теория денег и кредита. – М.: Издательское объединение «ЮНИТИ», 1995. – С. 85.; Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. 7-е изд. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – С.216.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. сангл.

– М.: Альпина Паблицер, 2017. – С.447.; Эдвин Дж. Долан и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. – СПб.: Санкт-Петербург, Оркестр, 1994. – С. 90-93.; Барлтруп К., МакНотон Д. Банковские учреждения в развивающихся рынках. Всемирный банк. – Вашингтон, 1993. – С. 53-54.; Hershey O. Letters of Credit. – Harvard Law Review. – Vol. 32. – P. 1-3.2021.; Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.; Корнилов Д.Т. Устойчивость банковской системы в условияхрыночной конкуренции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономическихнаук. – Ярославль, 2005. -23 стр.; Галий Е.А. Анализ надежности и инвестиционной привлекательности коммерческого банка. Автореф. дисс. на дунёсоиск. уч. ст. к.э.н. – Санкт-Петербург, 2003. – 20 с.; Стемповский И.А. Обеспечение финансовой устойчивости банковской системы Российской Федерации вусловиях глобализации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2013. -27 стр.; Уразов С. Устойчивость банковской системы: теоретические и методологические аспекты. //Банковское дело. № 12.; Горский М.А., Решульская Е.М. Финансовая устойчивость коммерческого банка: феномен, показатели и методы оценки. // Вестник Алтайской академии экономики и права, 2020. – № 3-1. – С. 29-39.; Семенова Н. Н., Иванова И. А., Василькина А. А. Оценка устойчивости развития коммерческого банкана основе метода анализа иерархий. Финансы: теория и практика, 2021; 25(4): 121-135 с.; Бобрик М.А. Совершенствование системы индикаторов финансовой устойчивости коммерческих банков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономическихнаук. – М., 2011. -24 стр.; Ганцева Л.А. Обеспечение финансовой устойчивости коммерческого банка. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономическихнаук. – Екатеринбург, 2001. -22 стр.; Волошина О.Б. Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения. //Известия высших учебных заведений. – Поволжский регион, 2014. № 1. – С.168-172.; Лещукова И.В. Прибыль коммерческого банка и ее источники//Инновационная наука. – Москва, 2017. - № 5. - С. 114 – 116.; Дудин Е. В. Динамика прибыли российских банков в условиях экономического спада. //Научное обозрение. – Москва, 2016. - № 10. – С. 139-141.; Вайн С. Оптимизация ресурсов современного банка. Пер. с англ. – М.: Альпина аблице, 2013. – С. 16.; Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 230-231.; Дорофеев, В. Д. Стратегическое планирование коммерческого банка. // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки, 2013. – № 2 (26) – С. 168.; Кумок С.И. Анализ деятельности коммерческих банков. – М.: Вече, 1996. – С. 153.; Куницина, Н. Н. Бизнес-планирование в коммерческом банке. – М.: Финансы и статистика, 2007. – 304 с.; Baltas Nicolae, Rodean (Cozma) Maria-Daciana “Study regarding the " nancial stability of commercial banks listed on Bucharest Stock Exchange of CAMELS rating outlook”, *Journal of International Studies*, Vol. 7, No 3, 2014, pp. 133-143. DOI: 10.14254/2071-8330.2014/7-3/12.; Хасянова С.Ю. О системе оценки финансовой устойчивости банковского сектора. // Финансы и кредит. –2012.– № 2. – С. 24–25.; Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994.

moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ayrim nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan<sup>4</sup>.

O'zbekistonlik tadqiqotchi R.Bozorov falsafa doktori dissertasiyasida tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va respublika banklari misolida faqat uchta ko'rsatkich orqali – aktivlarning rentabelligi, kapitalning rentabelligi va kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi ko'rsatkichlari orqali baholagan. Bundan tashqari, bank tizimini transformasiya qilish sharoitida, koronavirus pandemiyasidan keyingi davrda banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari tadqiq qilinmagan.

Ammo xorijlik va o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasida fundamental tadqiqotlar olib borilgani holda hozirgi tijorat banklarini transformasiya qilish sharoitida banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishida mustaqil dissertasion tadqiqot obyekti sifatida to'liq o'rganilmagan. Respublikada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi

---

<sup>4</sup>Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари шароитида тижорат банкларининг кредит портфелини диверсификациялаш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2000. -46 б.; Абдуллаев А.Я. Тижорат банкларининг ликвидлилик даражасини ошириш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Т., 2018. – 21 б.; Бобакулов Т.И. Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг долзарб масалалари. / Ўзбекистон Республикасида қулай ишбилармонлик муҳитини шакллантиришда банк тизимининг роли. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2015. –155 б.; Йўлдошев О.А. Ўзбекистон Марказий банкининг тижорат банклари. фаолиятини тартибга солиш амалиётини такомиллаштириш. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 18 б.; Сағтаров О.Б. Тижорат банклари ликвидлигини таъминлашни такомиллаштириш. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 156., Ўзбекистон Республикаси банк тизими барқарорлигини таъминлаш методологиясини такомиллаштириш. Иқтис. фанлари доктори илмий дараж. олиш учун тайёрл. дисс. автор. – Тошкент, 2018.-42 б.; Бердияров Б.Т. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг ликвидлиги ва тўлов қобилиятини таъминлаш масалалари. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 30 б.; Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2008.-35 б.; Холмахмадов З.А. Тижорат банклари фаолиятининг барқарорлигини илғор хориж тажрибаси асосида таъминлаш имкониятлари. //Халқаро молия ва ҳисоб. – Тошкент, 2017. 4-сон. –34 б.; Рузметов Ш.Б. Ўзбекистон тижорат банклари депозит базасини мустаҳкамлаш йўллари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 18 б.; Маҳмудалиева Ё.А. Тижорат банкларининг молиявий барқарорлиги ва уни баҳолаш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Т., 2001. – 22 б.; Насриддинов Ф. Тижорат банклари молиявий барқарорлигини баҳолашнинг халқаро стандартлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 4-сон, июль-август, 2018 йил.; Умарова З.С. Тижорат банкларининг кредит эмиссиясини тартибга солишни такомиллаштириш йўналишлари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. –16 б. Бозоров Р.Х. Тижорат банклари молиявий барқарорлигини таъминлашни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. 9-10-б.

ko'rsatkichlar tahliliga doir darsliklar, o'quv qo'llanmalar hanuzgacha chop etilmagan. Bu holat tanlangan mavzuning dolzarbligi, bu muammolarni chuqur o'rganish va tadqiq etish zarurati mavjudligidan darak beradi.

**Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertasion tadqiqot Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O'zbekiston tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlarni o'rganish va xulosalar ishlab chiqish;

banklar aktivlarining rentabelligini oshirish borasidagi ilg'or xorij tajribasini tadqiq qilish va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston banklari aktivlarining rentabelligini tahlil qilish va tendensiyalarni aniqlash;

tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bilan bog'liq dolzarb muammolarni aniqlash;

tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston tijorat banklari, xususan, AT Asakabank, AT O'zsanoatqurilishbanki va TIF Milliybanklarining faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** tijorat banklari aktivlari rentabelligini oshirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertasion tadqiqotni amalga oshirishda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida sof foizli daromadning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlar va qat'iy belgilangan stavkaga ega qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali bank aktivlarining rentabelligini oshirish asoslangan;

tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining aktiv operatsiyalar hajmidagi salmog'ini oshirish yo'li bilan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ini oshirishni ta'minlash taklifi asoslangan;

tijorat banklaridagi umumiy kredit riskini kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushi va uning kreditlar bo'yicha zaxira hamda aksiyadorlik kapitali yig'indisiga nisbati ko'rsatkichlari orqali baholash asosida kredit riski darajasini pasaytirish taklifi asoslangan;

kreditlarning tarmoqlar va sohalar bo'yicha konsentratsiyasining yuqori chegarasini 25 foizga qadar yetkazish hamda tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida chakana depozitlar ulushini ko'paytirish hisobiga kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish (foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash) imkoniyatlari me'yoriy darajasini ta'minlash asoslab berilgan;

sof foizli marja darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlarning (sof foizli spred, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyenti, foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik) me'yoriy darajasini ta'minlash asoslab berilgan;

tijorat banklari yalpi daromadining brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshirish uchun foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan barqaror nisbatini shakllantirish, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyentining me'yoriy darajasini (0,45) ta'minlash, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan foizli



daromadlar miqdori va foizli daromadlar hajmidagi salmog'ini oshirish zarurligi asoslangan;

tijorat banklari aktivlarining rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir darajasiga baho berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda foydalanilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, adabiyotlar va Internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy yondashuvlarining solishtirma va tanqidiy tadqiqi, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari hamda tijorat banklari amaliy ma'lumotlarining moliyaviy hisobotlardan olinganligi, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston bank amaliyotiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertasiya ishida ilgari surilgan nazariy qoidalar, xulosa va takliflardan kelgusida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish hamda tadqiqotlarning ilmiy apparatini boyitish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertasiya ishida ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan respublika tijorat banklari faoliyatida, ularning aktivlari rentabelligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

tijorat banklarida sof foizli daromadning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlar va qat'iy belgilangan stavkaga ega qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali bank aktivlarining rentabelligini oshirish taklifidan AT "Sanoatqurilishbank" faoliyatida foydalanilgan (AT "Sanoatqurilishbank"ning 2023-yil 26-iyuldagi 29-06-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida

“Sanoatqurilishbank” ATda 2022-yilda 2021-yilga nisbatan foizli daromadlarning o‘shirish sur‘ati 20,1 foizni tashkil etgan holda foizli daromad keltiradigan aktivlar miqdorini 11,6 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining aktiv operatsiyalar hajmidagi salmog‘ini oshirish yo‘li bilan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog‘ini oshirishni ta‘minlash taklifidan AT “Sanoatqurilishbank” faoliyatida foydalanilgan (AT “Sanoatqurilishbank”ning 2023-yil 26-iyuldagi 29-06-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida “Sanoatqurilishbank” ATda qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining aktiv operatsiyalar hajmidagi salmog‘ini 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 0,11 foizli punktga oshirish imkoni yaratilgan;

tijorat banklaridagi umumiy kredit riskini kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushi va uning kreditlar bo‘yicha zaxira va aksiyadorlik kapitali yig‘indisiga nisbati ko‘rsatkichlari orqali baholash asosida kredit riski darajasini pasaytirish taklifidan AT “Sanoatqurilishbank” faoliyatida foydalanilgan (ATB “Sanoatqurilishbank”ning 2023-yil 26-iyuldagi 29-06-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida “Sanoatqurilishbank ATBda sof kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog‘ini 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 0,8 foizli punktga oshirish imkoni yaratilgan;

kreditlarning tarmoq va sohalar bo‘yicha konsentratsiyasining yuqori chegarasini 25 foizga qadar yetkazish hamda tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida chakana depozitlar ulushini ko‘paytirish hisobiga kredit portfelining diversifikasiya darajasini oshirish taklifidan ATB “Sanoatqurilishbank” faoliyatida foydalanilgan (ATB “Sanoatqurilishbank”ning 202-yil 26-iyuldagi 29-06-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida ATB “Sanoatqurilishbank”da foizli daromadlar miqdorini 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 20,1 foizga oshirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 2 ta xalqaro ilmiy jurnal, 4 ta respublika ilmiy jurnal va 3 ta xalqaro

ilmiy-amaliy konferensiya, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish bo'yicha tavsiya etilgan milliy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiya asosiy matnining hajmi 100 betni tashkil etadi.

## **I bob. TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI RENTABELLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI**

### **1.1-§. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar**

Banklar aktivlarining rentabellik darajasini oshirish masalasi iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan.

Prof. J.Sinking fikricha, “banklarning daromad bazasiga baho berishda sof foizli marja ko‘rsatkichi muhim o‘rin tutadi. Sof foizli marja bank aktivlari miqdoriga teskari proporsional bo‘lib, kreditlar va depozitlar bozoridagi yuqori darajadagi raqobat uning darajasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi”<sup>5</sup>.

Bu yerda J.Sinki sof foizli marjani sof foizli daromadning brutto aktivlarga nisbati ekanligini va rivojlangan davlatlarning bank tajribasida bank foizli daromadlarining katta qismini kreditlardan olingan foizli daromadlar tashkil etishini, foizli xarajatlarning asosiy qismini muddatli hamda jamg‘arma depozitlarga to‘langan foizlardan iborat ekanligini nazarda tutmoqda.

Prof. V.Usoskinning xulosasiga ko‘ra, “bank rahbariyati eng yuqori daromad olish maqsadida risk qilishga moyildir, bu esa, bank omonatchilarining manfaatlariga ziddir”<sup>6</sup>.

Bu bilan V.Usoskin foyda ortidan quvib o‘zini yuqori riskka uchratadigan banklar to‘g‘risida fikr bildirgan. Lekin konservativ strategiya asosida ishlayotgan banklar ham borki, ular foyda ortidan quvib yuqori riskka duch kelmaydilar. Chunki, tijorat banklari aktivlarining daromadlilik bilan risk darajasi orasida bevosita aloqadorlik mavjud.

Prof. I.Yudinaning xulosasiga ko‘ra, “rivojlanayotgan davlatlarda tijorat banklarining daromad bazasi holati bevosita kredit riski darajasiga bog‘liq bo‘lib, milliy valyutaning qadrsizlanishi natijasida xorijiy valyutada kredit olgan

---

<sup>5</sup> Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С.338.

<sup>6</sup> Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.:ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.

mijozlarni kreditni qaytara olmay qolishlari kredit riski darajasini oshib ketishiga olib keladi”<sup>7</sup>.

I.Yudinaning mazkur fikri respublikamiz bank amaliyoti uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Sababi shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>8</sup>gi farmonining kuchga kirishi bilan valyuta siyosatini liberallashtirish boshlandi va natijada milliy valyuta AQSh dollariga nisbatan qariyb ikki barobarga qadrsizlandi (milliy valyutamizning AQSh dollariga nisbati) 2017-yil 5-sentabrda amaldagi 4210,00 so‘mdan 8100,00 so‘mga ko‘tarildi).

Prof. O.Lavrushinning fikricha, “har doim ham kutilayotgan samara o‘z kapitalidan olinadigan foydadan iborat bo‘lmaydi. Uzoq muddatli samarani mo‘ljallagan bank mulkdorlari innovatsiyalarni bank faoliyatiga joriy qilish orqali joriy foydaning bir qismini yo‘qotadilar”<sup>9</sup>.

J.Sinkining xulosasiga ko‘ra, “tijorat banki foydasining qisqa muddatli o‘zgarishiga asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, bular: portfelli risk va operatsion risk hisoblanadi. Bunda portfelli risklardan kredit riski, foiz riski, likvidlilik riski, muddatidan oldin so‘ndirish riski va valyuta riski tijorat banklarining foydasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi”<sup>10</sup>.

J.Sinkining bu fikrlari O‘zbekiston banklari uchun muhim ahamiyatga molik. Bunga e’tibor berish kerak bo‘lgan jihati shundan iboratki, birinchidan, O‘zbekiston banklari qimmatli qog‘ozlar portfelining diversifikatsiya darajasi past, ikkinchidan, ayrim banklarda operatsion risk darajasining yuqori ekanligi namoyon bo‘lmoqda.

I.Leshukovaning e’tirofiga ko‘ra, “banklar foydalilik darajasini tadqiq qilishda bank faoliyatining samaradorligini ta’minlash strategiyasini ishlab chiqish

<sup>7</sup> Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 230-231.

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentabrdagi PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni

<sup>9</sup> Лаврушин О.И. Развитие банковского сектора и его инфраструктуры в экономике России. – М.: КНОРУС, 2017. – С. 74.

<sup>10</sup> Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 210.

lozim va ushbu strategiya bank kapitalidan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan maqsadlar, harakatlar yig'indisidan iborat"<sup>11</sup>.

Ye.Dudinning fikricha, "tjorat banki samarali faoliyatining maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

mijozlar bazasini kengaytirish va ular bilan ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish;

bankning resurs bazasini kredit va investitsion operatsiyalarni yetarli hajmlarda amalga oshirish uchun kerak bo'lgan miqdorlarda shakllantirish;

bank aktivlari va passivlarining optimal tarkibini shakllantirish;

yangi bozorlarga kirib borish usullari orqali bank faoliyatining sohasini kengaytirish;

bank aktivlari va resurslar o'rtasidagi optimal nisbatni shakllantirish"<sup>12</sup>.

Biroq Ye.Dudina bank risklarini baholash va boshqarishni takomillashtirishni tjorat banki samarali faoliyatining maqsadlari sifatida e'tirof etmagan. Hozirgi kunda esa, tjorat banklari faoliyatidagi risklarning chuqurlashishi, shu jumladan, kredit riski va likvidlilik riski chuqurlashishi banklarning daromad bazasi barqarorligiga kuchli salbiy ta'sirni vujudga keltirmoqda.

V.Dorofeevning xulosasiga ko'ra, "bankning o'sish strategiyasi o'ta qattiq, shu jumladan, har doim ham legitim bo'lmagan usullardan foydalangan holda raqobatchilarni siqib chiqarishga qaratilgan agressiv raqobat siyosatni amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu Strategiyani amalga oshirish, odatda, nisbatan rentabelli, tabiiyki, riskli moliyaviy operatsiyalarga ustuvor yo'naltirilganlik bilan bog'liq"<sup>13</sup>.

V.Dorofeevning mazkur xulosasi tjorat banklarining zamonaviy faoliyatiga xos muhim jihat, ya'ni transmilliy banklar aktivlarining umumiy hajmida kreditlar va derivativlar yuqori salmoqni egallaydi. Kreditlar va derivativlar yuqori riskli

---

<sup>11</sup> Лещукова И. В. Прибыль коммерческого банка и ее источники//Инновационная наука. – Москва, 2017. - № 5. - С. 114 – 116.

<sup>12</sup> Дудин Е. В. Динамика прибыли российских банков в условиях экономического спада//Научное обозрение. – Москва, 2016. - № 10. - С. 139-141.

<sup>13</sup> Дорофеев, В. Д. Стратегическое планирование коммерческого банка//Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки. – 2013. – № 2 (26) – С. 168.

moliyaviy aktivlar bo‘lib, banklarning ssuda kapitallari bozori va fond bozorida raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Ayniqsa, derivativlarning risk darajasi yuqori. Bu esa, derivativlar bozorini tartibga solish hamda nazorat qilish mexanizmining mavjud emasligi va derivativlarning volatillik darajasini yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

S.Kumokning xulosasiga ko‘ra, “hozirgi kunda kapitalning yetarliligini kamaytirish hisobiga kapitalga to‘g‘ri keladigan foyda me‘yorini oshirishning iloji yo‘q. Qat‘iy raqobat va kredit resurslarining qimmatligi kapitalning aktivlarga nisbatan optimal darajasini ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, kapitalga to‘g‘ri keluvchi foyda me‘yorini oshirishning bosh zaxirasi bo‘lib, aktivlarning qaytimi darajasini oshirish hisoblanadi”<sup>14</sup>.

N.Kunitsinaning fikricha, “tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlilida markaziy o‘rinni, shubhasiz, ular tomonidan olinadigan daromadlar hajmi va sifatining o‘rganish egallaydi. Chunki, ular, o‘z navbatida, kredit tashkilotining foydasini shakllantirishda bosh omil hisoblanadi. Daromadlar kamayishi, odatda, bankning moliyaviy qiyinchiliklarga duchor bo‘lishida obyektiv ko‘rsatkich hisoblanadi. Aynan mazkur holatlar bankning moliyaviy natijalarini tahlil qilishda yalpi daromadlar tahlilining ahamiyatini belgilaydi”<sup>15</sup>.

O.Voloshinaning xulosasiga ko‘ra, “foizli daromadlarni tahlil qilishda nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalanish kredit operatsiyalarining va alohida olingan kreditlarning o‘rtacha daromadlilik darajasini baholash imkonini beradi. Bunday ko‘rsatkichlar sifatida quyidagi nisbatlar hisoblanadi:

- foizli daromadlarning ssuda hisobraqamlarining o‘rtacha qoldig‘iga nisbati;
- qisqa muddatli ssudalardan olingan daromadlarning qisqa muddatli ssudalarning o‘rtacha qoldig‘iga nisbati;
- alohida kredit guruhlari bo‘yicha olingan daromadlarning ushbu guruh kreditlarining o‘rtacha summasiga nisbati;

---

<sup>14</sup> Кумок С.И. Анализ деятельности коммерческих банков. – М. : Вече, 1996. – С. 153.

<sup>15</sup> Куницина Н. Н. Бизнес-планирование в коммерческом банке. – М. : Финансы и статистика, 2007. – 304 с.

-uzoq muddatli ssudalardan olingan foizli daromadlarning uzoq muddatli ssudalarning o'rtacha qoldig'iga nisbati"<sup>16</sup>.

Ammo O.Voloshina kreditlarning daromadlilikini baholashda kreditlar bo'yicha foizli daromadlarning o'sish darajasi hamda kredit mablag'larining o'sish sur'ati orasidagi bog'liqlik ko'rsatkichiga e'tibor qaratmaydi. Holbuki, O.Voloshina tomonidan tavsiya etilayotgan ko'rsatkichlarning hech biri kreditlar bo'yicha foizli daromadlarning o'sish darajasi va kredit mablag'larining o'sish darajasi orasidagi mutanosiblikni baholash imkonini bermaydi.

O.Ovchinnikova hamda A.Besning xulosasiga ko'ra, "banklarning moliyaviy barqarorligi deganda banklarning doumiy funksiyalari va yangidan amaliyotga kiritilayotgan funksiyalarini, tashqi ta'sirlarning qandayligidan qat'iy nazar, bajara olish imkoniyatiga aytiladi"<sup>17</sup>.

S.Urazovanning xulosasiga ko'ra, "banklarning moliyaviy barqarorligi banlarkning o'z faoliyati ko'rsatkichlarini mavjud chegaralar darajasida, turli omillarning salbiy ta'siridan qat'iy nazar, qo'llab-quvvatlash imkoniyatidir"<sup>18</sup>.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarga ko'ra, iqtisodchi olimlar banklarning moliyaviy barqarorligini ularning tashqi ta'sirlarga qaramay, o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajara olish imkoniyati sifatida talqin etmoqdalar. G.Melikyan "tijorat bankining moliyaviy barqarorligini mikro va makro darajaga ajratadi: mikro darajada tijorat bankining moliyaviy barqarorligi uning mijozlarga nisbatan maqsad va vazifalarini juda salbiy ta'sirlar sharoitida ham amalga oshira olishidir; makro darajada tijorat bankining moliyaviy barqarorligi bank tizimining barcha bo'g'inlarida tanazzul holatlarini bartaraf eta olish va iqtisodiy agentlarga jamg'armalar, investitsiyalarga nisbatan o'z maqsadlarini o'zgartirilmagan holda, o'z vazifalarini davom ettira olish imkoniyatidir"<sup>19</sup>.

---

<sup>16</sup> Волошина О.Б. Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения//Известия высших учебных заведений. - Поволжский регион, 2014. - №1. - С. 168-172.

<sup>17</sup> Овчинникова О.П., Бец А. Ю. Основные направления обеспечения динамической устойчивости банковской системы//Финансы и кредит. - Москва, 2006. - № 22. - С. 2-11.

<sup>18</sup> Уразова С. А. Устойчивость банковской системы: теоретические и методологические аспекты//Банковское дело. - Москва, 2006. - № 12. - С. 26-32.

<sup>19</sup> Меликьян Г.Г. Актуальные вопросы капитализации, устойчивости и конкурентоспособности российского банковского сектора. / XVI Международный банковский конгресс. URL: <http://www.cbr.ru/publ/MoneyAndCredit/Melikyan.pdf>.



K.Tixonkovning fikricha, “tijorat bankining moliyaviy barqarorligi deganda bankning kutilmagan o‘zgarishlarga adekvat tarzda javob bera olishi va uzoq muddatli davr oralig‘ida tarkibni saqlay olish imkoniyati tushuniladi”<sup>20</sup>.

Bu yerda K.Tixonkov moliya bozorida kutilmaganda yuzaga keluvchi o‘zgarishlarni nazarda tutgan. Moliya bozorida kutilmaganda yuzaga keluvchi o‘zgarishlar banklarning moliyaviy barqarorligi darajasiga kuchli salbiy ta’sirni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, banklar kreditlariga oid talab pasayishi yoki bank sotib olgan qimmatli qog‘ozlarning bozor baholari pasayishi.

F.Mishkinning fikricha, “banklarining moliyaviy barqarorligi uning moliyaviy qo‘yilmalari va o‘z resurslari manbalarining shunday mujassamlashgan holatiki, u banklarning ma’lum davr oralsida faoliyatini amalga oshirishini ta’minlaydi. Banklarning moliyaviy barqarorligi ularning moliyaviy mustaqilligini ta’minlaydi”<sup>21</sup>.

Haqiqatan ham, banklarning moliyaviy oqimlari va o‘z resurslari manbalari o‘rtasidagi mutanosiblik banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy o‘rinni egallaydi. Ammo banklar mablag‘larining asosiy qismini jalb qilingan resurslar tashkil etadi. Shuning uchun tijorat bankining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda uning moliyaviy quyilmalari bilan jalb qilingan resurslar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash ham muhim ahamiyatga ega.

Uerta de Sotoning fikriga ko‘ra, “birinchidan, banklar kreditlarining foiz stavkalarini tushirilishi bunga qadar foyda keltirmayotgan investitsiya loyihalarini foyda keltiruvchi investitsiya loyihalariga aylantiradi; ikkinchidan, banklar tomonidan ixtiyoriy jamg‘armalar bilan ta’minlanmagan kreditlar hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirilishi, pirovard natijada, investitsiya loyihalarining barbod bo‘lishi va berilgan kreditlar qaytmasligiga olib keladi”<sup>22</sup>.

U.Sotoning bu xulosasi O‘zbekiston Respublikasi bank amaliyoti uchun amaliy ahamiyatga ega. Sababi, mamlakat tijorat banklari taraqqiyotining

---

<sup>20</sup> Тихонков К. С. Обеспечение устойчивости и безопасности банковской системы России при переходе к модернизационному развитию. – М.: Дело, 2010. – С. 174.

<sup>21</sup> Mishkin F.S. Global Financial Instability: Framework, Events, Issues//Journal of Economic Perspectives. 1999. No 4. Vol. 13.

<sup>22</sup> Уэрто де Сото Хесус. Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008. – 666 с.

zamonaviy bosqichida tijorat banklari tomonidan berilayotgan investitsion kreditlarning foiz stavkalari yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa, inflyatsiya darajasi yuqori ekanligi va banklar tomonidan jalb qilinayotgan resurslar qimmat ekanligi bilan izohlanadi.

Investitsiya loyihalarini samara berishi esa, bevosita tijorat banklari investitsion kreditlarining foiz stavkalarini darajasiga bog'liq. Foiz stavkalari darajasi yuqori bo'lishi investitsiya loyihasiga tegishli pul resurslari chiqimi ortishiga olib keladi, natijada loyiha samaradorligi pasayadi.

A.Mian va A.Safi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, "uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlari firmalarga nisbatan sezilarli darajada cheklangan. Bu esa, uy xo'jaliklariga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaslik ehtimolini oshiradi"<sup>23</sup>.

A.Mian va A.Safining fikriga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, rivojlanayotgan ko'pchilik mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida aholining daromad darajasini past ekanligi ularga berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytmaslik ehtimolini yanada oshiradi.

Dando va Skodberg tomonidan yetti ming kompaniya bo'yicha tanlov asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, "reytinglar o'rtasidagi o'tish matritsalarini (migratsiya matritsalarini) va ular asosida ekstrapolyatsiyalarni baholash yuqori reytingli kredit portfelli uchun, shu jumladan, past defoltli kredit portfelli uchun defolt maqomiga o'tishni aniq baholash imkonini beradi"<sup>24</sup>.

Mazkur tadqiqot aniq hisob-kitoblarga asoslangan tanlanma tahlil natijalariga asoslanganligi bilan ajralib turadi va defoltli kredit portfelli bo'yicha muhim amaliy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

Vey va Yuan ssudalar bo'yicha defolt (Loss Given Default, LGD) sharoitida yo'qotishlar ulushini aniqlash uchun chegaraviy taqsimot tuzishni taklif qilganlar<sup>25</sup>.

---

<sup>23</sup> Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726.

<sup>24</sup> Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2–3). – pp. 423–444.

<sup>25</sup> Wei L., Yuan Z. The Loss Given Default of a Low-Default Portfolio with Weak Contagion//Insurance: Mathematics and Economics. – 2016. – Vol. 66. – pp. 113 -123.

Ammo bu tadqiqotda taklif qilingan yondashuvning shu sohadagi boshqa yondashuvlar bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan.

D.Taschening xulosasiga ko'ra, "agar aktivlarning kichik korrelyatsiyasi (18 %) sharoitida defolt ehtimolini baholash uchun ishonchli intervalning yuqori chegaralarini tanlashning standart metodidan foydalanilsa, u holda optimal korrektirovka 50-75 % ahamiyatlilik darajasiga muvofiq keladi, katta korelyatsiya ( $R=24$  %) sharoitida – 75-90 % ahamiyatlilik darajasiga mos keladi"<sup>26</sup>. Bu esa, LDPni amaliy modellashtirish uchun muhim xulosa hisoblanadi. Buning sababi shundaki, agar LDP chakana mahsulot bo'lsa (ularda korrelyatsiya odatda kichik bo'ladi), unda ahamiyatlilikning konservativ darajasi 75 % bo'ladi. Agar LDP chakana segment mahsuloti bo'lmasa, unda ahamiyatlilikning konservativ darajasi 90 % bo'lishi kerak.

J.Isakovning xulosasiga e'tibor bersak, "banklar tomonidan xizmatlar sohasiga ajratilayotgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasining o'rtacha bir foizga oshishi berilgan kreditlar daromadliligi 0,8 %ga oshishiga, berilayotgan kreditlar hajmining bir foizga oshishi kreditlarning daromadlilik darajasi 1,8 %ga kamayishiga olib keladi"<sup>27</sup>.

J.Isakovning bu xulosasi tijorat banklari tomonidan xizmat ko'rsatish sohasiga berilgan kreditlarning miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarning ekonometrik tahliliga asoslangan va shu jihatdan olganda ishonchli hisoblanadi.

B. Berdiyarovning xulosasiga ko'ra, "tijorat banklari regulyativ kapitalining passivlar hajmidagi ulushining barqarorligini ta'minlash, sof foydaning o'sish sur'ati bilan jami aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali aktivlar rentabelligining barqaror darajasini ta'minlash zarur"<sup>28</sup>.

Banklar regulyativ kapitalining passivlar hajmidagi ulushi barqarorligini ta'minlash bankning to'lovga qobillik imkoniyatini oshiradi, lekin, bu holat uning

---

<sup>26</sup> Tasche D. Bayesian Estimation of Probabilities of Default for Low Default Portfolios//Journal of Risk Management in Financial Institutions. – 2013. – Vol. 6(3). – pp. 302–326.

<sup>27</sup> Isakov J.Ya. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – B. 28.

<sup>28</sup> Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 30.

moliyaviy barqarorligini oshishiga olib kelmaslik ehtimoli mavjud. Chunki kapital qimmat moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

Ammo, aytish lozimki, B.Berdiyarovning sof foydaning o'sish darajasi bilan jami aktivlar o'rtacha summasining o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash haqidagi mulohazasi mamlakatimiz banklari uchun asosiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

A.Abdullayevning xulosasiga ko'ra, "respublikamiz tijorat banklarida aktivlardan olingan daromadlarni me'yorga nisbatan 0,91 va 0,93 %li punktga, olingan foydaning 0,81 va 0,96 %li punktga past bo'lib, mazkur holatlar tijorat banklari resurslarini daromad keltiruvchi aktivlarga qulay joylashtirilmaganligi bilan izohlanadi"<sup>29</sup>.

A.Abdullayevning xulosasi birmuncha munozaralidir. Chunki aktivlardan olingan daromadlarni me'yorga nisbatan 0,81 %dan 0,96 %gacha ekanligi sezilarli darajada yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. A.Abdullayev esa, buni yetarli emas, deb hisoblaydi.

F.Xolmamatovning ta'kidlashicha, "banklarda kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining me'yoriy ko'rsatkichlari oshishiga yo'l qo'ymaslik va sof foizli marja ko'rsatkichining barqaror darajasini ta'minlash yo'li bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning tijorat banklari yalpi daromadi hajmidagi salmog'ini oshirish kerak"<sup>30</sup>.

F.Xolmamatovning bu xulosasi muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki "birinchidan, respublikamizning yirik banklarida kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga oid zaxira ajratmalarining amaldagi darajasi mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan yuqori"<sup>31</sup>. Ikkinchidan, mamlakat tijorat banklarida sof foizli marja ko'rsatkichining amaldagi darajasi mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan past.

---

<sup>29</sup> Abdullayev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 21.

<sup>30</sup> Xolmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. 25-b.

<sup>31</sup> Majidov J.K. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini oshirish yo'llari. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. 15-b.

## **1.2-§. Banklar aktivlarining daromad darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning qiyosiy tavsifi**

Iqtisodchi olimlar tomonidan banklar aktivlari daromadlilikini tavsiflovchi bir qator ko'rsatkichlar taklif qilingan. lekin, fikrimizcha, XVF mutaxassislari banklarning moliyaviy barqarorligini baholash maqsadida taklif qilgan hamda 24 ta moliyaviy ko'rsatkichni o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar tizimi o'ziga xos, muhim ahamiyatga ega. Mazkur tizim quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- regulyativ kapitalning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbati;
- birinchi darajali kapitalning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbati;
- regulyativ kapitalni brutto aktivlarga nisbati;
- daromad keltirmaydigan kreditlarning regulyativ kapitalga nisbati;
- sof foydaning regulyativ kapitalning o'rtacha miqdoriga nisbati;
- yirik kreditlarning kapitalga nisbati;
- ochiq valyuta pozitsiyasi jami miqdorining kapitalga nisbati;
- bankning derivativlar bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyalarining kapitalga nisbati;
- kapital instrumentlari bo'yicha sof ochiq pozitsiyaning regulyativ kapitalga nisbati;
- likvidli aktivlarning brutto aktivlarga nisbati;
- likvidli aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati;
- jalb qilingan depozitlarning brutto kreditlarga nisbati;
- sof foydaning aktivlarning o'rtacha summasiga nisbati;
- ishlamaydigan kreditlarning brutto kreditlarga nisbati;
- berilgan kreditlarning sektorlar bo'yicha ulushi;
- uy-joy ipoteka kreditlarining brutto kreditlarga nisbati;
- tijorat ipoteka kreditlarining brutto kreditlarga nisbati;
- berilgan kreditlarning hududlar bo'yicha taqsimoti;
- xorijiy valyutalardagi kreditlarning brutto kreditlarga nisbati;
- xorijiy valyutalardagi majburiyatlarning jami majburiyatlarga nisbati;

- foizli daromadlarning yalpi daromadga nisbati;
- valyuta savdosidan olingan daromadlarning yalpi daromadga nisbati;
- foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbati;
- xodimlarga qilingan xarajatlarning foizsiz xarajatlar hajmidagi ulushi<sup>32</sup>.

Fikrimizcha, bu ko‘rsatkichlar tizimida tijorat banklarining daromad bazasini bevosita va bilvosita tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlar mavjud:

- daromad keltirmaydigan kreditlarning jami kapitalga nisbati;
- sof foydaning jami kapitalning o‘rtacha summasiga nisbati;
- ochiq valyuta pozitsiyasining kapitalga nisbati;
- bankning derivativlar bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyalarining kapitalga nisbati;
- likvidli aktivlarning brutto aktivlarga nisbati;
- sof foydaning aktivlarning o‘rtacha summasiga nisbati;
- ishlamaydigan kreditlarning brutto kreditlarga nisbati;
- berilgan kreditlarning sektorlar bo‘yicha ulushi;
- foizli daromadlarning yalpi daromadga nisbati;
- valyuta savdosidan olingan daromadlarning yalpi daromadga nisbati;
- foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbati.

E’tirof etish joizki, dunyo bank tajribasida, shuningdek, rivojlangan davlatlarning bank amaliyotida “tijorat banklarining daromad bazasiga baho berishda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki mutxassislari tomonidan tavsiya etilgan quyidagi me’yorlardan keng foydalaniladi”<sup>33</sup>:

1. Sof foizli spread ko‘rsatkichi. Ekspertlar tomonidan ushbu ko‘rsatkichni hisoblashning quyidagi metodikasi taklif qilingan:

$$(SOFD : SO‘Q) \cdot 100 \% - (DTF : FTD) \cdot 100 \%,$$

bu yerda: SOFD – ssudalardan olingan foizli daromadlar; SO‘Q – ssudalarning o‘rtacha qoldig‘i; DTF – depozitlarga to‘langan foizlar; FTD – foiz to‘lanadigan depozitlar.

<sup>32</sup> Translation of: Financial Soundness indicators: Compilation Guide. International Monetary Fund, 2007. ISBN 1-58906-401-0. www.imf.org.

<sup>33</sup> Банковское дело. Учебник. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. - С. 243-244.

Mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajasi: 1,25 %.

2. Foizli daromadlarning daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha qoldig'iga nisbati. Mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajalari bo'yicha tijorat banklarini quyidagi sinflarga ajratish tavsiya etilgan:

birinchi sinf – 4,6 %;

ikkinchi sinf – 4,0 %;

uchinchi sinf – 3,7 %;

to'rtinchi sinf – 3,4 %;

beshinchi sinf – 3,2 %.

3. Foizsiz daromadlarning foizli marjaga nisbati. Mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajalari bo'yicha tijorat banklarini quyidagi sinflarga ajratish tavsiya etilgan:

birinchi sinf – 48 %;

ikkinchi sinf – 52 %;

uchinchi sinf – 57 %;

to'rtinchi sinf – 61 %;

beshinchi sinf – 64 %.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlardan ko'rish mumkinki, banklarning daromad bazasini shakllantirish hamda ularning barqarorligini ta'minlashda foizli daromadlar hamda kreditlardan olinadigan foizli daromadlar asosiy o'ringa ega. Yuqorida keltirilgan mezonlardan ko'rish mumkinki, foizli daromadlarning aktivlarga nisbatan miqdori oshishi ijobiy natija sifatida baholanayotgan bo'lsa, foizsiz daromadlarning foizli marjaga nisbatan darajasi oshishi salbiy natija sifatida baholanmoqda.

Fikrimizcha, foizli hamda foizsiz daromadlarga nisbatan yuqoridagi mulohazalar banklarning daromad bazasi barqarorligini ta'minlash jihatidan alohida amaliy ahamiyatga ega. Shu sababliki, banklarda foizli daromadlarning asosiy qismi asosiy faoliyat turidan olinadi. Banklar uchun ikkita asosiy faoliyat turi mavjud: kreditlar berish va qimmatli qog'ozlar qaratilgan investitsion operatsiyalarni amalga oshirish.

Banklar kreditlardan va qat'iy belgilangan foiz stavkali qimmatli qog'ozlardan (obligatsiya, depozit va jamg'arma sertifikatlar, imtiyozli aksiyalar) foizli daromadlar oladi. Demak, foizli daromadlar darajasi tijorat bankining ssuda kapitallari bozori va fond bozoridagi mavqei o'zgarishini ko'rsata oladi.

J.Sinkining tadqiqotlari ko'rsatdiki, "sof foizli marja ko'rsatkichi va aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi banklarning katta yoki kichikligiga bog'liq holda farqlanadi hamda mazkur holat quyida keltirilayotgan sabablar orqali tavsiflanadi:

- kreditlar va depozitlar bozorlarida raqobat kuchliligi sababli ichki va xalqaro pul bozorlarida jalb qilinadigan mablag'lar qiymati yuqori ekanligi va kreditlarning daromadlilik darajasi past ekanligi;

- katta banklarning resurslari tarkibida jalb qilingan resurslar salmog'i yuqori ekanligi va asosiy depozitlar salmog'i past ekanligi, kichik banklarda resurslar tarkibida asosiy depozitlar salmog'i yuqori ekanligi va jalb qilingan resurslar salmog'i past ekanligi;

- katta banklarda kichik banklarga nisbatan suzuvchi stavkadagi kreditlar ko'p ekanligi va, shu sababli, katta banklarning foiz stavkalari siklik tebranishlarga ta'sirchanligi yuqori ekanligi"<sup>34</sup>.

Tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlar aktivlarning rentabelligi va kapitalning rentabellik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

"Aktivlarning rentabellik ko'rsatkichi tijorat bankining sof foydasini uning brutto aktivlariga bo'lish va olingan natijani 100 %ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Aktivlarning rentabellik ko'rsatkichining me'yoriy darajasi belgilanmagan. Shuning uchun, uni baholashda qiyosiy tahlil usuli qo'llaniladi. Bunda mazkur usuldan ikki xil shaklda foydalaniladi:

---

<sup>34</sup> Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. / Пер. с англ. – М.: Альпина Паблицер, 2017. – С. 339-340.



- tijorat banki aktivlarining rentabellik ko'rsatkichi boshqa banklarning shu ko'rsatkichi bilan taqqoslanadi;

- tijorat banki aktivlarining rentabellik ko'rsatkichining joriy davrdagi darajasi o'tgan davrlardagi darajalari bilan solishtiriladi.

Kapitalning rentabellik ko'rsatkichi tijorat bankining sof foydasini uning regulyativ kapitaliga bo'lish va olingan natijani 100 %ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Aktivlarning rentabellik ko'rsatkichidan farqli ravishda, kapitalning rentabellik ko'rsatkichining me'yoriy darajasi mavjud bo'lib, u 15 foizni tashkil etadi.

Tijorat banklari daromad bazasining barqarorligi bevosita bankning xarajatlari darajasi va dinamikasiga bog'liq. Shu sababli, tijorat banklarining xarajatlari darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilamiz.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan tijorat banklari xarajatlarning darajasini tavsiflovchi quyidagi ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan"<sup>35</sup>:

1. Tijorat banki tomonidan to'langan dividendlar darajasi.

Bunday ko'rsatkichning me'yoriy darajalari bo'yicha tijorat banklarini quyidagi sinflarga ajratish tavsiya etilgan:

birinchi sinf – 32 %;

ikkinchi sinf – 42 %;

uchinchi sinf – 48 %;

to'rtinchi sinf – 55 %;

beshinchi sinf – 60 %.

2. Mehnat haqi xarajatlarning brutto aktivlarning o'rtacha summasiga nisbatan darajasi.

Mazkur ko'rsatkichning ruxsat etilgan darajasi 2 %.

3. Operatsion xarajatlarning brutto aktivlarning o'rtacha summasiga nisbatan darajasi. Bu ko'rsatkichning ruxsat etilgan darajasi 3,5 %.

---

<sup>35</sup> Банковское дело. Учебник. / Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. - С. 244.

Shuningdek, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari kreditlar bo‘icha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari bo‘yicha ham baholash metodikasini taklif qilganlar. Bu metodika bo‘yicha, “kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining bank aktivlari o‘rtacha summasiga nisbatan darajasi 1,0 %dan oshmasligi lozim”<sup>36</sup>.

Banklar aktivlarining jami miqdorida kreditlar yuqori ulushni egallagani uchun, ular bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi banklarning daromad bazasining barqarorligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Kredit portfeli sifatining yomonlashishi kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari miqdori ortishiga sabab bo‘ladi. Buning boisi shuki, kredit portfeli sifatining yomonlashishi tasniflangan kreditlar tarkibi yomonlashishiga olib keladi.

Banklar kreditlari daromadlilikini xarakterlovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri 1 birlik kredit mablag‘iga mos keluvchi daromad miqdori ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichni hisoblashda kreditlardan olingan daromadlar summasi (16309-hisobraqamning debetli qoldig‘i) brutto kreditlar yig‘indisiga nisbati olinadi hamda chiqqan qiymat 100 % ga ko‘paytiriladi.

Shunisi e‘tiborliki, 1 so‘m birlik kredit mablag‘igaga mos keluvchi daromad darajasi ko‘rsatkichining ruxsat etilgan darajasi belgilanmagan. Shuning uchun, uni baholashda qiyosiy tahlil usuli qo‘llaniladi.

Shu yerda e‘tibor berish kerakki, Markaziy bank tomonidan banklarga nisbatan o‘rnatilgan prudensial talablar banklarning daromad bazasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar darajasi va dinamikasiga bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalari va kreditlash faoliyatiga nisbatan o‘rnatilgan quyidagi prudensial talablar kreditlardan olinadigan daromadlar darajasi va dinamikasiga bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi:

---

<sup>36</sup> Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кредит самарадорлигини ошириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. 16-17-б.

“- banklarda bir emitentning qimmatli qog‘ozlariga yonaltirilgan investitsiyasi bankning birinchi darajali kapitalining 15 %idan oshib ketishi mumkin emas;

- bankning sotib olib, qayta sotishga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyasi bankning birinchi darajali kapitalining 25 %idan oshib ketishi mumkin emas;

- bankdagi barcha emitentlar qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyasi bankning birinchi darajali kapitalining 50 %idan oshib ketishi mumkin emas;

- bankning bir mijozga yoki o‘zaro bog‘liq mijozlar guruhiga beradigan ta‘minlanmagan kreditlari miqdori bank birinchi darajali kapitalining 5 %idan oshib ketishi mumkin emas;

- bankning bir mijozga yoki o‘zaro bog‘liq mijozlar guruhiga beradigan ta‘minlangan kreditlari miqdori bank birinchi darajali kapitalining 25 %idan oshib ketishi mumkin emas;

- bank tomonidan berilgan jami yirik kreditlar miqdori bank birinchi darajali kapitalining 8 barobaridan oshib ketishi mumkin emas”<sup>37</sup>.

Shunisi ahamiyatliki, tijorat bankining daromad bazasini tavsiflovchi bir ko‘rsatkich ikkinchisining o‘rnini bosa olmaydi. Masalan, kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi ko‘rsatkichi tijorat banki tasniflangan kreditlari tarkibidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Qolgan birorta ham ko‘rsatkich tasniflangan kreditlar tarkibidagi o‘zgarishlarni ko‘rsata olmaydi. Yoki tijorat banki aktivlarining rentabelligidan boshqa biror-bir ko‘rsatkich sof foydaning brutto aktivlarga nisbatan darajasini ko‘rsata olmaydi. Shu sababli, tijorat bankining daromad bazasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

E’tirof etish joizki, inflyatsiya muammosi mavjud mamlakatlarda har doim banklar faoliyatini tavsiflovchi ayrim ko‘rsatkichlar darajasini inflyatsiya darajasiga ko‘ra tuzatish zarurati yuzaga keladi. Masalan, yuqorida sof foizli spread ko‘rsatkichini ko‘rdik. Bu ko‘rsatkichning me‘yoriy darajasi 1,25 % qilib

---

<sup>37</sup> Bank nazorati bo‘yicha hisobotlarni to‘ldirish bo‘yicha tavsiyalar. 3006EN-shakl.

belgilangan. Ammo bu ko'rsatkich ayrim mamlakatlardagi inflyatsiya darajasidan juda ham pastku, degan haqli savol tug'iladi. "O'zbekiston Respublikasida 2020-yilda inflyatsiyaning yillik darajasi 11,1 foizni tashkil etdi"<sup>38</sup>. Bu yerda yaqqol ko'rinadiki, mazkur ko'rsatkich bo'yicha belgilangan 1,25 %li me'yoriy ko'rsatkich inflyatsiya darajasiga mos emas.

Xalqaro bank amaliyotida banklar faoliyatiga oid ba'zi ko'rsatkichlar darajasini inflyatsiya darajasiga mos ravishda tuzatish holatlari uchraydi. Masalan, banklardan berilgan kreditlarning nominal foiz stavkasi darajasi ayrim holatlarda inflyatsiya darajasining oshgan qismiga bog'liq ravishda o'zgartiriladi. Aytaylik, kreditning yillik nominal foiz stavkasi 6 % bo'lsa, yil davomida inflyatsiya darajasi 2 f%ga kotarilgan bo'lsa, u holda, kredit 8 %li stavkada qaytariladi.

E'tiborli jihati shundaki, kreditlar daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni hisoblashda brutto kreditlar va netto kreditlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Netto kreditlar daromad keltirayotgan kreditlarni, ya'ni haqiqatda ishlab turgan kreditlar miqdorini ko'rsatadi. Brutto kreditlar esa, barcha kreditlarni, shu jumladan, daromad keltirmayotgan "o'lik" kreditlarni ham o'zida aks ettiradi. Shu sababli, kreditlar daromadlilikini baholashda brutto kreditlar va netto kreditlardan foydalanishda ehtiyot bo'lishi lozim.

Fikrimizcha, sof foizli spred ko'rsatkichida netto kreditlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, bu ko'rsatkich kreditlardan olingan haqiqatdagi daromadlar bilan depozitlarga haqiqatda to'langan foizlar o'rtasidagi munosabatni tavsiflaydi. 1 birlik kredit mablag'iga mos keluvchi daromad darajasi ko'rsatkichida esa, brutto kreditlardan foydalanish to'g'ri bo'ladi. Chunki mazkur ko'rsatkich bank tomonidan berilgan barcha kreditlarning umumiy daromadlilikini tavsiflaydi.

Qayd etish joizki, kreditlar daromadlilikini tavsiflashda bankning balansidan chiqarilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar dinamikasini tahlil qilish asosiy amaliy ahamiyatga ega. Bu tahlilning boisi shundaki, birinchi holatda, balansdan chiqarilgan kreditlar summasiga bankning kreditlari miqdori kamayadi. Natijada

---

<sup>38</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot//www.cbu.uz.

foizli daromad keltiruvchi manba miqdori kamayadi; ikkinchidan, muddati o'tgan foizlarni bank balansidan chiqarish kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdorini kamayishiga olib keladi. Chunki muddati o'tgan foizlar kreditlardan olingan foizli daromadlar hisobidan balansdan chiqariladi.

Tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalanishda ekspert baholash usulini tatbiq etish asosiy amaliy ahamiyatga ega. Tajribali ekspertlar o'z empirik tadqiqotlariga asoslangan holda bir qator muhim xulosalarni shakllantirganlar. Bunday xulosalardan tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlilida foydalanish tahlil natijasida shakllantiriladigan xulosalarni boyitish va ularning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy bank pul-kredit siyosati tijorat banklarining daromad bazasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning ta'siriga bilvosita hamda yuqori ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ta'sir quyidagi ko'rinishlarda ifodalanadi:

1. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi oshishi banklar kreditlarining foiz stavkalari ko'tarilishi hamda, aksincha, qayta moliyalash stavkasining tushirilishi bank kreditlarining foiz stavkalarini tushishiga olib keladi.

Aslini olib qarajak, banklar kreditlari foiz stavkalari oshishi banklarning kreditlardan olinadigan foizli daromadlari hajmi oshishiga olib kelishi kerak. Lekin kreditlarning foiz stavkasi oshishi kreditdan foydalanuvchi mijozlar soni kamayishiga olib kelish ehtimolini oshiradi. Natija esa, kreditlardan olish mumkin bo'gan foizli daromadlar umumiy miqdori kamayishiga olib kelishi mumkin.

2. Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari oshirilishi banklarning likvidliligiga hamda resurs bazasi barqarorligiga salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Oqibatda, banklarning aktiv operatsiyalarni moliyalashtirish hajmini oshirish imkoniyati cheklanib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning aktiv operatsiyalardan olinadigan daromadlari miqdori oshirishga to'sqinlik qiladi.

Aksincha, Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari pasaytirilishi tijorat banklarining aktiv operatsiyalari hajmini ko'paytirish imkoniyatini yaratadi. Natija

esa, tijorat banklarining aktiv operatsiyalardan oladigan daromadlari miqdori oshishiga olib keladi.

3. So‘mning nominal almashuv kursining sezilarli darajada pasayishi, ya’ni milliy valyutaning yuqori sur’atda qadrsizlanishi.

### **1.3-§. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bo‘yicha xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati**

Tijorat banklari aktivlarining rentabelligiga baho berishda aktivlarning daromadlilik darajasiga baho berish muhim o‘rin tutadi. O‘z navbatida, dunyo bank amaliyotida banklar aktivlarining daromadlilikiga baho berishda “CAMELS” reyting tizimidagi metodikadan keng foydalaniladi.

#### **1.1-jadval**

#### **““CAMELS” reyting tizimida tijorat banklarining daromadlar bo‘yicha reytingi”<sup>39</sup>**

<b>Reyting</b>	<b>Asosiy mezonlar</b>
1 – Kuchli	Daromadlar barqaror va operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta’minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun, daromadlar sifati, miqdori va dinamikasiga ta’sir qiluvchi aktivlar sifati, o‘sishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda, yetarlidir.
2 – qoniqarli	Daromadlar qoniqarli hisoblanadi. Ular operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta’minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun yetarli. Ammo bank daromadlarining qayd etilgan omillar ta’sirida kamayish ehtimoli mavjud.
3 – o‘rta	Daromadlar yaxshilanishi kerak va ular operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta’minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun, daromadlar sifati, miqdori va dinamikasiga ta’sir qiluvchi aktivlar sifati, o‘sishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda, yetarli emas.
4 – chegaraviy	Daromadlar yetarli emas, ular operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta’minlash va zaxiralarni shakllantirishni zarur darajada ta’minlay olmaydi. Reytingning ushbu darajasini olgan tijorat banklari uchun foyda va sof foizli marjaning beqaror tebranishi, sezilarli salbiy tendensiyalar mavjudligi, nominal va beqaror daromadlar, davriy zararlar va daromadlarning o‘tgan yillarga nisbatan kamayishi xos.
5 – qoniqarsiz	Daromadlar yetarli emas. Tijorat banki sezilarli darajada zarar ko‘rayotganligi sababli kapitalining yo‘qotilishi yuz bermoqda va buning natijasida uning moliyaviy barqarorligi xavf ostida qolmoqda.

<sup>39</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

Yuqoridagi jadvalga ko‘ra, “CAMELS” reyting tizimi doirasida banklarning daromadlarini baholashda tijorat banklariga beshta reyting bahosi berilmoqda. Bunda eng yuqori reytingga (1) ega banklarda daromadlar barqarorligi va ularni operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta’minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun yetarliligi asosiy mezonlar sifatida olinmoqda.

Daromadlari bo‘yicha qoniqarsiz reytingga (5) ega banklarda daromadlar yetarli emas va ko‘rilayotgan zararlar miqdori katta bo‘lganligi sababli kapitalning kamayishi yuz bermoqda.

## 1.2-jadval

### “Deutsche Bankda (Germaniya) sof foizli daromad va sof foyda miqdori, mln. yevro”<sup>40</sup>


Ko‘rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Sof foizli daromad	13316	13749	11526	11125
Sof foyda	624	0	341	251

Yuqoridagi jadvalga ko‘ra, Deutsche Bankda sof foizli daromad miqdori 2019-yilda 2018-yilga nisbatan ko‘paygan. Lekin, 2021-yilda sof foizli daromadlar hajmi 2020-yildagiga ko‘ra sezilarli darajada tushgan. Deutsche Bankda sof foyda hajmi 2019-yilda 2018-yildagiga ko‘ra keskin tushgan. Lekin 2021-yilda sof foyda hajmi 2020-yildagiga ko‘ra keskin pasaygan.

Deutsche Bankda 2021-yilda 2020-yilga nisbatan sof foyda miqdori kamayganligi mazkur davrda sof foizli daromad miqdori kamayganligi bilan izohlanadi va ushbu holat bankning moliyaviy mustahkamligini oshirish borasida salbiy holat hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, Deutsche Bankda zaxira ajratmalarining haqiqatdagi darajasi uning me’yoriy darajasidan (1,0 %) past ekanligi uning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

<sup>40</sup>Jadval Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. Concolidated Statement of income. www.db.com (Deutsche Bank) internet-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.




**1.2-rasm. “Bank of Americada kreditlarning daromadliliği, foizda”<sup>41</sup>**

1.2-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan aniq ko‘rish mumkinki, Bank of America tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning daromadliliği 2017-2021-yillarda sezilarli darajada o‘zgarmay, barqaror darajada qolgan. Masalan, 2021-yilda kreditlarning daromadlilik darajasi 2020-yilga nisbatan sezilarsiz darajada, ya’ni 0,4 %li punktga pasaygan. 2020-yilda esa, kreditlarning daromadlilik darajasi 2019-yilga nisbatan 0,5 %li punktga oshgan.

Tahlil natijalari ko‘rsatdiki, Bank of Americaning lizing shartnomalari summasining jami hajmida katta ulushni foydalanish huquqi lizingi egallaydi.

Shuningdek, Bank of Americaning lizing kreditlari hajmida o‘zgaruvchan lizing kreditlari nisbatan kichik salmoqni egallaydi.



**1.3-rasm. Doychebank (GFR) va Paribas bankda (Fransiya) sanoat korxonalariga berilgan kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi, foizda<sup>42</sup>**

<sup>41</sup> Rasm muallif tomonidan Bank of America banking 2017-2021 yillar yakuni bo‘yicha e’lon qilingan yillik hisoboti ma’lumotlari asosida ([www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com)) tuzilgan.



Yuqoridagi rasimga ko'ra, Doychebankda 2017-2021-yillarda sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga yonaltirilgan zaxira ajratmalari miqdori juda past bo'lgan. Faqat, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich darajasi 2019-yilga nisbatan sezilarsiz darajada (0,2 f.p.) oshgan. Mazkur holatlar kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish jihatidan yaxshi holat hisoblanadi.

1.3-rasm ko'rsatkichlaridan shu ma'lum bo'lmoqdaki, Paribas bankda 2017-2021-yillarda sanoat tashkilotlariga berilgan kreditlar bo'icha zararlarni qoplashga ajratilgan zaxira ajratmalari darajasi juda past va barqaror bo'lgan. Bu esa, kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish jihatidan ijobiy holatdir.

Tahlil natijalari ko'rsatdiki, 2017-2021-yillarda Doychebank aktivlarining jami salmog'ida kreditlar hamda qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar yuqori salmoqni tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, banklarni kreditlash instituti ekanligi hamda qimmatli qog'ozlar bozorining aktiv professional ishtirokchisi ekanligi bilan izohlanadi.

Tijorat banklari uchun vaqtinchalik bo'sh pul resurslarini Markaziy bankning depozit hisobraqamlariga joylashtirish risk darajasi past bo'lgan aktiv operatsiya hisoblanadi. Chunki Markaziy bankning jalb qilingan depozitlarni qaytara olmay qolish ehtimoli juda past. Ammo milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat banklarining rolini oshirish nuqtai nazaridan mazkur depozitlar hajmi oshishi salbiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, banklar tomonidan Markaziy bankda depozit sifatida joylashtiriladigan pul mablag'lari miqdori ko'payishi milliy iqtisodiyotga banklar tomonidan yo'naltiriladigan kreditlar miqdorining hamda tadbirkolik subyektlarning qimmatli qog'ozlariga qilinayotgan investitsiyalar miqdori kamayishiga olib keladi.

Tahlil natijalari ko'rsatdiki, 2017-2021-yillarda Doychebank tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning daromadlilik darajasining o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Bundan tashqari, mazkur davr mobaynida kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi past

---

<sup>42</sup> Rasm muallif tomonidan Doychebank va Paribas bankning 2017-2021 yillar yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bo'lgan. Bu esa, tasniflangan kreditlar tarkibi yaxshi ekanligidan darak beradi. Bundan shu narsani ko'rish mumkinki, kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi ortishi bevosita tasniflangan kreditlar tarkibida yuz beruvchi o'zgarishlarga bog'liq.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda bank tizimining rivojlanganligi iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyalashtirish manbalariga talablarini qondirish imkonini beradi. Xususan, bank tizimi rivojlanganligi tadbirkorluk subyektlarining kreditlarga, shu jumladan investitsion kreditlarga ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Biroq tadbirkorluk subyektlarining o'zi ham kreditni qaytara oladigan darajada to'lovga qobillikka ega bo'lishi zarur. Yuqori likvidli garovga ega bo'lish, degani uning to'lovga qobil degani emas.

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar banklarning muhim daromad manbai bo'lgani holda, ularning likvidligini ta'minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Korporatsiyalar qimmatli qog'ozlari va hosilaviy qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar banklariga katta miqdorda daromad keltirsa, Markaziy bankning qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan investitsiyalar banklarning likvidligini ta'minlash imkonini beradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklarida sanoat korxonalarini kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi kredit risklarini boshqarishda asosiy e'tibor kredit risklarini xejirlashga qaratiladi.

O'z navbatida, kredit riskini xejirlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Kreditli defolti svop (credit default swap).
2. Kreditli defolti opsiyon (credit default option).
3. Kreditli spred opsiyon (credit spread option).
4. Yalpi daromadga svop (total return swap).
5. Kreditli notalar (credit notes).

Rivojlangan davlatlarning bank amaliyotida zamonaviy portfel nazariyasi muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotiga joriy qilingan. Natijada:

muammoli kreditlar darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy darajasini ta'minlash talabi banklarning Kredit siyosatida majburiy shart qilib belgilangan;

kreditlarning daromadlik darajasini o'zgarishi bilan kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'z vaqtida aniqlash imkonini beruvchi modellar joriy qilingan;

har bir kreditlash shakli bo'yicha xo'jalik subyekti hisoblangan yuridik shaxslarning bank kreditidan foydalanishning ruxsat etilgan chegaraviy darajasi belgilab qo'yilgan.

Amaliyotda, kredit munosabatlarida vujudga kelayotgan muammolardan ko'rinadiki, majburiyat bajarilishini ma'lum usuli orqali ta'minlanganligi kreditorga kreditni to'lash bilan bog'liq muammo hal etilganligini anglatmaydi. Sababi shundaki, ta'minlanganlik tamoyiliga oid tadbirlar banklar tomonidan qanchalik yaxshi amalga oshirilganligidan qat'iy nazar, qarzdorlik qohlanmagan yoki lozim darajada qoplanmagan bo'lsa, banklar uzhun mijoz ta'minotiga munosabat obyektiga bahosi doirasida garov obyektiga egalik huquqini olish uchun muammolarni vujudga keltiradi.

Bu qiyinchiliklardan biri, majburiyat ijrosini ta'minotga qaratish jarayonida sud qarorini olish bilan bog'liq muammodir. Bu jarayon uzoq davom etishi, ortiqcha ovoragarchiliklar bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar mavjudligi bilan muammolar tug'dirmoqda. Shuningdek, uchinchi shaxslar kafilligini amaliyotda qo'llashda ham qator muammolar mavjud.

### 1.3-jadval

#### **“Bank of America bankida (AQSh) brutto aktivlar va regulyativ kapitalning rentabellik darajalari”, foizda<sup>43</sup>**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2017-y.</b>	<b>2018-y.</b>	<b>2019-y.</b>	<b>2020-y.</b>	<b>2021-y.</b>
Brutto aktivlar rentabelligi	0,8	1,2	1,1	0,6	1,0
Regulyativ kapital rentabelligi	6,8	10,6	10,4	6,6	11,8

<sup>43</sup> Jadval muallif tomonidan [www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com) sayti (Annual Report. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi jadvalga ko'ra, Bank of America bankida brutto aktivlarning rentabelligi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 0,2 foizli punktga oshgani holda, regulyativ kapitalning rentabelligi 5,0 foizli punktga oshdi.

Bank of America bankida brutto aktivlarning rentabelligining 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 0,2 %li punktga oshganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sof foydaning o'sish sur'ati 75,4 foizni tashkil etgani holda, brutto aktivlarning o'sish darajasi 38,9 foiz bo'ldi;

– ushbu davrda bank tomonidan berilgan kreditlarning o'sish sur'ati nisbatan past bo'ldi (4,3 %).

Bank of America bankida regulyativ kapitalning rentabelligini 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 5.0 %li punktga oshganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sof foydaning o'sish sur'ati 75,4 %ni tashkil etgani holda, regulyativ kapitalning o'sish sur'ati atigi 1,1 %ni tashkil etdi;

– mazkur davrda bank sof foydasining yuqori o'sish sur'ati, asosan, foizsiz daromadlarning oshishi va foizsiz xarajatlarning kamayishi hisobiga yuz berdi: 2021-yilda 2017-yilga nisbatan bankning foizsiz daromadlari miqdori 9,0 %ga oshgani holda, foizsiz xarajatlar miqdori 9,6 %ga kamaydi.

### **1-bob bo'yicha xulosa**

Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish ko'rsatdiki:

banklarning daromad bazasini baholashda sof foizli marja ko'rsatkichi asosiy o'rin egallaqdi hamda ushbu ko'rsatkich kreditlar va depozitlar bozoridagi yuqori darajadagi raqobat uning darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi;

tijorat banki rahbari yuqori daromad olish niyatida risk qilishni xohlaydi, ammo bu , bankning omonatchilari manfaatlariga qarama-qarshi holatdir;

banklar yalpi daromadlarining jami hajmida foizli daromadlar ulushi 70 %dan kam bo'lmasligi kerak;

rivojlanayotgan davlatlarda banklar daromad bazasining holati to'g'ridan-to'g'ri kredit riski miqdoriga bog'liq bo'lgani holda, so'm qadrining pasayishi

natijasida chet el valyutasida kredit olgan shaxslarning kreditni to'lay olmay qolishlari kredit riski darajasi yana ham oshib ketishini keltirib chiqaradi;

har doim ham kutilayotgan samara o'z kapitalidan olinadigan foydadan iborat bo'lmaydi. Uzoq muddatli samarani mo'ljallagan bank mulkdorlari innovatsiyalarni bank faoliyatiga joriy qilish orqali joriy foydaning bir qismini yo'qotadilar;

bank sof foydasi miqdorini aniqlashda bank faoliyatining samaradorligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqarish maqsadga muvofiq, shuningdek, bu strategiya bank mablag'laridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan maqsadlar va harakatlarning yig'indisidan tashkil topadi;

agar aktivlarning kichik korrelyatsiyasi (18 %) sharoitida defolt ehtimolini baholash uchun ishonchli intervalning yuqori chegaralarini tanlashning standart metodidan foydalanilsa, u holda, optimal korrektirovka 50-75 % ahamiyatlilik darajasiga muvofiq keladi, katta korelyatsiya ( $R=24$  %) sharoitida – 75-90 % ahamiyatlilik darajasiga mos keladi;

hozirgi kun yetarliligini kamaytirish orqali kapital miqdoriga mos keluvchi foyda me'yorini oshirish imkoni mavjud emas. Kuchli raqobat hamda kredit mablag'larining qimmatligi kapitalning aktivlarga oid optimal darajasini ta'minlash uchun imkoniyat bermaydi. Shunday ekan, kapitalga to'g'ri keluvchi foyda me'yorini oshirishning asosiy zaxirasi aktivlarning qaytimi darajasini oshirish hisoblanadi.

Banklar aktivlarining daromad darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili ko'rsatdiki:

tijorat banklari aktivlarining daromad bazasini baholashda XVF tomonidan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash maqsadida taklif etilgan va 24 ta moliyaviy ko'rsatkichni o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar tizimi o'ziga xos, muhim ahamiyatga ega;

dunyo bank amaliyotida banklarning daromad bazasi baholashda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki mutaxassislari tomonidan tavsiya etilgan quyidagi me'yorlardan keng qo'llaniladi:

sof foizli spred ko'rsatkichi;

foizli daromadlarning daromad keltiradigan aktivlarning o'rtacha qoldig'iga nisbati;

aktivlarning rentabellik ko'rsatkichi tijorat bankining sof foydasini uning brutto aktivlarga bo'lish va olingan natijani 100 %ga ko'paytirish orqali aniqlanadi hamda bu ko'rsatkichning chegaraviy darajasi belgilanmagan;

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan tijorat banklari xarajatlarining darajasini tavsiflovchi quyidagi ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan:

tijorat banki tomonidan to'langan dividendlar darajasi;

mehnat haqi xarajatlarining brutto aktivlarning o'rtacha summasiga nisbatan darajasi;

operatsion xarajatlarning brutto aktivlarning o'rtacha summasiga nisbatan darajasi;

kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi.

Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bo'yicha xorij tajribasining tahlili ko'rsatdiki:

“CAMELS” reyting tizimi doirasida banklarning daromadlarini baholashda tijorat banklariga beshta reyting bahosi berilmoqda. Bunda eng yuqori reytingga (1) ega banklarda daromadlarning barqarorligi va ularni operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta'minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun yetarliligi asosiy mezonlar sifatida olinmoqda, daromadlari bo'yicha qoniqarsiz reytingga (5) ega banklarda daromadlar yetarli emas va ko'rilayotgan zararlar miqdori katta bo'lganligi sababli kapitalning kamayishi yuz bermoqda;

Deutsche Bankda sof foizli daromad miqdori 2019-yilda 2018-yilga nisbatan ko'paygan, ammo, 2021-yilda sof foizli daromad miqdori 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Deutsche Bank da sof foyda miqdori 2019-yilda 2018-yilga nisbatan keskin kamaygan;

Bank of America tomonidan berilgan kreditlarning daromadliligi 2017-2021-yillarda sezilarli darajada o'zgaray, barqaror darajada qolgan;

Doychebankda 2017-2021-yillarda sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari miqdori juda past bo'lgan, faqat, 2020-yilda bunday ko'rsatkich darajasi 2019-yilga nisbatan sezilarsiz darajada (0,2 f.p.) oshgan;

Paribas bankda 2017-2021-yillarda sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi juda past va barqaror bo'lgan;

2017-2021-yillarda Doychebank aktivlarining jami hajmida kreditlar va qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar yuqori ulushni egallagan;

Bank of America bankida brutto aktivlar rentabelligi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 0,2 %li punktga oshgani holda, regulyativ kapitalning rentabelligi 5,0 %li punktga oshgan;

Bank of America bankida brutto aktivlar rentabelligini 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 0,2 %li punktga oshganligi mazkur davrda sof foydaning o'sish darajasi brutto kreditlarning o'sish darajasidan yuqori bo'lganligi, banklardan ajratilgan kreditlarning o'sish darajasini nisbatan past bo'lganligi singari sabablar bilan izohlanadi.

## **II bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI**

### **AKTIVLARINING RENTABELLIGI**

#### **2.1-§. Tijorat banklari investitsion jozibadorligini ta’minlashning me’yoriy-huquqiy asoslari**

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha quyidagi aniq chora-tadbirlar belgilandi:

“inflyatsiyaning yillik darajasi 2023-yildan boshlab 5 %dan oshmasligi kerak; davlat budjetining defitsiti 2023-yildan boshlab nominal yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 %dan oshmasligi lozim;

2020-yilda davlat tashqi qarzini jalb qilishning eng yuqori hajmi 4,5 mlrd. AQSh dollari qilib belgilandi;

2022-2026-yillar mobaynida 120 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiyalar o‘zlashtiriladi, shundan 70 mlrd. dollarini xorijiy investitsiyalar tashkil etadi;

qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalarning yillik hajmi hozirgi 200 mln. AQSh dollaridan 2026-yilga borib 7 mlrd. AQSh dollariga yetkaziladi;

tadbirkorlik subyektlarining soliq yuki hozirgi 27,5 %dan 2026-yilga borib 25 %ga tushiriladi”<sup>44</sup>.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar barqarorligining 2022-2026-yillarda ta’minlanishi banklarning moliyaviy mustahkamligi borasida ijobiy ta’sirni yuzaga keltiradi. Xususan, inflyatsiyaning 5 %dan oshmaydigan darajasini ta’minlash, birinchidan, banklarning milliy valyutamiz-so‘mdagi aktivlarining inflyatsiya ta’sirida pasayish darajasini kamaytiradi; ikkilamchi, banklar ssudalarining foiz stavkalarini pasaytirish imkoniyatini yaratadi. Buning natijasida, tijorat banklari kreditlarining qaytarilish darajasi oshadi va banklarning kreditlardan olinadigan foizli daromadlari miqdori oshadi.

Bundan ko‘rinadiki, investitsiyalarni yo‘naltirish hajmini oshirish tijorat banklarining investitsion kreditlari miqdori oshishiga olib kelishi bilan birga, mamlakat qimmatli qog‘ozlar bozorini takomillashtirilishi banklarning qimmatli

---

<sup>44</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//www.lex.uz.



qog'ozlar bilan bajariluvchi investitsion operatsiyalari (aktiv operatsiyalar, passiv operatsiyalar, savdo-vositachilik operatsiyalari) hajmi oshishiga olib keladi.

Natijada, birinchidan, tijorat banklarining foizlar va dividendlar ko'rinishidagi daromadlari hajmi oshadi; ikkinchidan, banklarning yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar (Hukumatning hamda Markaziy bank qimmatli qog'ozlari) orqali joriy likvidliligini ta'minlanish imkoniyati kengayadi. Sababi shuki, O'zbekiston Markaziy banki belgilab bergan banklarning likvidliligiga nisbatan prudensial talabda Hukumatning hamda Markaziy bankning qimmatli qog'ozlariga banklar tomonidan qilingan investitsiyalar yuqori likvidli aktiv sifatida inobatga olinadi. Buning oqibatida, Hukumatning hamda Markaziy bankning qimmatli qog'ozlariga qilingan qo'yilmalar banklarning joriy likvidliligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining soliq yuki kamaytirilishi ularning to'lovga qobillik darajasi ko'tarilishiga olib keladi. Buning oqibatida, ularning tijorat banklari ko'rsatadigan moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi oshishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi" muhim ahamiyat kasb etadi. Bu Strategiyada "tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq quyidagi chora-tadbirlar belgilangan:

banklarni faoliyatiga xos bo'lmagan aktivlar va funksiyalardan bosqichma-bosqich ozod etish;

moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasini ishlab chiqish;

2025-yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd. so'mgacha bosqichma-bosqich oshirish;

davlat ulushi ishtirokidagi tijorat banklarining kuzatuv kengashlari tarkibiga mustaqil a'zolari jalb qilish;

banklarning kredit portfeli o'sishini optimallashtirish va kreditlarning konsentratsiyalashuvi risklarini kamaytirish;

aholi omonatlarini himoyalash tizimini rivojlantirish;

banklarga nisbatan qo'llaniladigan xalqaro tan olingan minimal standartlar va talablarni joriy qilish orqali me'yoriy va nazorat bazalarini qayta ko'rib chiqish;

bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tavsiyalarini inobatga olgan holda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

bank xizmatlarining sifati va tezligini oshirish uchun yangi raqamli mahsulotlarni joriy qilish;

masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish ulushini oshirish maqsadida banklarning operatsion faoliyatida axborot texnologiyalari keng qo'llanilishini ta'minlash"<sup>45</sup>.

“Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi nizomda tijorat banklarining likvidligi bo'yicha quyidagi prudensial me'yorlar o'rnatilgan:

1. Joriy likvidlilik koeffitsiyenti.

Joriy likvidlilik koeffitsiyenti joriy aktivlarning summasini (to'lash muddati 30 kungacha bo'lgan bankning likvidli aktivlari hamda qo'yilmalari, bunga muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o'tgan kreditlar kirmaydi) joriy majburiyatlar (talab qilib olinguncha hamda ijro etish muddati 30 kundan ortiq bo'lmagan majburiyatlar) summasiga bo'lish bilan aniqlanadi va 30 foizdan kam bo'lishi mumkin emas.

Joriy likvidlilik koeffitsiyentini aniqlashda banklar o'rtasidagi kredit bozorida 30 kungacha joylashtirilgan yoki jalb qilingan depozitlar hamda kreditlar sof ko'rinishda, agar aktivlar majburiyatlardan ko'p bo'lsa, ortgan summa joriy aktivlar tarkibiga, agar majburiyatlar aktivlardan ko'p bo'lsa, ortgan summa joriy majburiyatlar tarkibiga qo'shiladi. Bunda kamroq bo'lgan aktiv va majburiyatlar summasi joriy aktivlardan ham joriy majburiyatlardan ham chegirib tashlanadi.

$$JLK = \text{Joriy aktivlar} / \text{Joriy majburiyatlar} \cdot 100\% \geq 30\%, \quad (2.1)$$

Bu yerda:

---

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi farmoni. //QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.

- joriy aktivlar - to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan bankn likvidli aktivlari hamda qo'yilmalari, bunga muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o'tgan kreditlar kirmaydi;

- joriy majburiyatlar – talab qilib olinguncha hamda bajarish muddati 30 kundan oshmaydigan majburiyatlar.

2. Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti. Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti bank kassasidagi naqd pul hamda boshqa to'lov hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining hamda Markaziy banki qimmatli qog'ozlari hamda bankning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobraqamlaridagi mablag'lari (bunga Markaziy bankdagi majburiy zaxira hisobraqamlaridagi mablag'lar kirmaydi) qiymatini talab qilib olinguncha majburiyatlar qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Lahzali likvidlilik koeffitsiyentini aniqlashda O'zbekiston Respublikasining so'mdagi mablag'lari inobatga olinadi.

Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti 10 foizdan kam bo'lishi mumkin emas.

$$LQMK = \frac{\text{Yuqori likvidli aktivlar}}{\text{Keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim}} \cdot 100 \% > 90 \% \quad (2.1)$$

3. Likvidlilikni qoplash me'yor koeffitsiyenti. Likvidlilikni qoplash me'yor koeffitsiyenti (LQMK) yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun davomidagi umumiy sof chiqimga bo'lish sifatida aniqlanadi (LQMK=yuqori likvidli aktivlar/keyingi 30 kun davomidagi jami sof chiqim).

Keyingi 30 kun ichidagi kirim keyingi 30 kun ichidagi chiqimning 75 %idan oshgan taqdirda, keyingi 30 kun ichidagi kirim sifatida keyingi 30 kun ichidagi chiqimning 75 %i olinadi.

Keyingi 30 kun ichidagi kirim va chiqimning qayta hisoblash koeffitsiyenti Markaziy bank tomonidan o'rnatiladi va majburiyatlarning turi va muddatiga bog'liq bo'ladi.

LQMK 100 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Bunday ko'rsatkich 2019-yil 1-sentabrdan boshlab:

barcha valyutalarda;  
milliy valyutada;

xorijiy valyutalarda (barcha xorijiy valyutalarning yig'indisi) ta'minlanishi shart.

4. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsenti. SBMMK barqaror moliyalashtirishning mavjud miqdorini barqaror moliyalashtirishning zarur miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi (SBMMK=barqaror moliyalashtirishning mavjud miqdori/barqaror moliyalashtirishning zarur miqdori).

SBMMK 100 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Bunday ko'rsatkich 2019-yil 1-sentabrdan boshlab:

barcha valyutalarda;

milliy valyutada;

xorijiy valyutalarda (barcha xorijiy valyutalarning yig'indisi) ta'minlanishi shart.

SBMMK aktivlarni qaytarish muddatlarini hisobga olgan holda, moliyalashning barqaror resurslari mavjud bo'lishi uchun, shuningdek, 1 yildan ortiq muddatdagi balansdan tashqari moddalardagi majburiyatlarni qo'shib, likvidlikka bo'lgan talabni (zarur bo'lgan barqaror moliyalashtirishni) qondirish uchun kerak.

Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasiga quyidagilar kiradi:

jami kapital;

amaldagi qaytarish muddati 1 yil va undan ortiq bo'lgan bank majburiyatlari;

qaytarish muddati belgilanmagan boshqa depozitlar va qarz mablag'lari summasining 30 %i;

qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan boshqa depozitlar va qarz mablag'lari summasining 30 %i.

Barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga quyidagilar kiradi:

qaytarilishiga 1 yil va undan ortiq muddat qolgan bank aktivlari, shu jumladan muammoli kreditlar va nomoliyaviy aktivlar (yer uchastkalari, binolar, mebel, kompyuterlar va avtomashinalar);

sud jarayonida bo'lgan yoki belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar;

qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan boshqa aktivlar summasining 30 %i, qaytarilish muddati 1 yildan kam bo'lgan yoki muddatsiz likvidli aktivlar bundan mustasno;

balansdan tashqari moddalarning 15 %i.

Bunda balansdan tashqari moddalar deganda tijorat banki tomonidan ochilgan ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar, bank kafolatlari, tijorat banki tomonidan berilgan opsiyonlar va bankning forvard bitimlari ko'zda tutilgan"<sup>46</sup>.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuniga asosan, "Markaziy bank:

– pul-kredit siyosatini amalga oshirish doirasida Markaziy bank banklar jalb qilgan majburiyatlar ostida banklar tomonidan Markaziy bankda deponentga o'tkaziladigan majburiy zaxiralarning normativlarini belgilaydi;

– Markaziy bank bozor foiz stavkalari darajasiga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, bank tizimining likvidliligini saqlab turish va tartibga solish maqsadlarida pul bozorida likvidlikni taqdim qilish hamda olib qo'yish operatsiyalarini amalga oshiradi;

– likvidlikning vaqtinchalik taqchilligi yuzaga kelganda to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank likvidlikni saqlab turish uchun tijorat banklariga uch oygacha bo'lgan muddatga qisqa muddatli kreditlar tarzida tezkor yordam berishga haqli. Mazkur kreditlar bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bankning boshqa kreditlariga doir amaldagi stavkalardan kam bo'lmasligi va u bankning aktivlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak"<sup>47</sup>.

E'tirof etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yuridik va jismoniy shaxslarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur qarorga muvofiq, tijorat banklariga:

– "bank faoliyatining ilg'or xorij tajribasini o'rganish hamda bank xizmatlari hamda mahsulotlarining yangi turlarini amalga oshirish;

---

<sup>46</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. - №32. 141-152-b.

<sup>47</sup> O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida. // QHMMB:03/19/582/4014-son.12.11.2019-y.

– bank xizmatlariga ehtiyojlarni hisobga olgan holda banklar filiallari va mini-banklar tarmogʻini kengaytirish;

– filiallarning kredit ajratishda bosh banklar bilan qoʻshimcha kelishuvsiz mustaqil qarorlar qabul qilish boʻyicha huquqlarini kengaytirish tavsiya etiladi”<sup>48</sup>.

Respublika Markaziy bankining “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi toʻgʻrisida”gi yoʻriqnomasiga (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan) asosan tasniflangan kreditlarning besh toifasi boʻyicha ham zaxira ajratmalari shakllantiriladigan boʻldi:

- standart kreditlar – 1 %;
- substandart kreditlar – 10 %;
- qoniqarsiz kreditlar – 25 %;
- shubhali kreditlar – 50 %;
- umidsiz kreditlar – 100 %”<sup>49</sup>.

## **2.2-§. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligi**

Banklar aktivlarining rentabelligi sof foydani brutto aktivlarning oʻrtacha summasiga boʻlish orqali foiz koʻrinishida aniqlanadi. Shu tufayli, sof foyda miqdorining oʻsish surʼati bilan brutto aktivlar miqdorining oʻsish surʼati oʻrtasidagi mutanosiblikni taʼminlash aktivlar rentabelligini taʼminlashning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.


Eʼtirof etish joizki, respublikamiz banklari aktivlarining jami salmogʻda eng yuqori ulushni kreditlar egallaydi. Shu sababli, kreditlarning rentabelligini taʼminlash banklar aktivlarining rentabelligini taʼminlashning muhim sharti hisoblanadi.

---

<sup>48</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori. //QHMMB:07/18/3620/0933-son. 24.03.2018-y.

<sup>49</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida. // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2015-y., 28-son, 374-modda; Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 30.04.2018-y., 10/18/2696-2/1120-son.

Respublikamiz banklarida muammoli kreditlar miqdori hamda darajasi yuqori bo'lgani holda, keyingi yillarda muammoli kreditlarni banklarning kredit portfelidagi ulushining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.



**2.1-rasm. “TIF Milliy banki hamda Asakabankda aktivlarning rentabelligi”<sup>50</sup>**

2.1-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2017-2019-yillarda TIF Milliy bankida aktivlarning rentabellik darajasini oshishi kuzatilgan, ammo, 2019-2021-yillarda bu ko'rsatkich yuqori darajada pasaygan. Asakabankda aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan. Bundan tashqari, tahlil qilingan davr mobaynida Asakabankda aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi darajasi juda past bo'lgan. Mazkur holatlar Asakabank aktivlarining rentabelligini oshirish jihatidan salbiy holat hisoblanadi.

E'tirof etish joizki, banklar aktivlarining rentabelligini oshirish bevosita sof foizli marjaning darajasiga va bir so'mlik aktivga mos keluvchi daromad darajasiga bog'liq.

Quyida sof foizli marja va bir so'mlik aktivga to'g'ri keluvchi daromad darajasi ko'rsatkichlarining darajasi va dinamikasini tahlil qilamiz (2.1-jadval).

<sup>50</sup> TIF Milliy banki hamda Asakabankning 2017-2021 yillar oralig'idagi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

## 2.1-jadval

### Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida sof foizli marja va bir so‘mlik aktivga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi (foizda)<sup>51</sup>

Ko‘rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Sof foizli marja	0,9	1,7	2,3	3,3	3,2
Bir so‘mlik aktivga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi	4,4	6,2	8,9	9,5	9,9

2.1-jadval ma’lumotlaridan yaqqol ko‘rinadiki, TIF Milliy bankida 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sof foizli marja va bir so‘mlik aktivga to‘g‘ri keluvchi daromad darajasi ko‘rsatkichlarining darajasi oshgan. Bu esa, bank aktivlarining rentabelligini oshirish jihatidan ijobiy holat hisoblanadi. Ammo tahlil qilingan davr mobaynida sof foizli marja ko‘rsatkichini me’yoriy darajadan (4,5 %) ancha past bo‘lganligi bank aktivlarining rentabelligini oshirish jihatidan salbiy holat hisoblanadi.

2.1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, TIF Milliy bankida bir so‘mlik aktivga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi 2017-2021-yillarda o‘shir sur‘atiga ega bo‘lgan. Bu bank aktivlarining rentabelligini oshirish jihatidan ijobiy holat hisoblanadi.

Respublikamiz banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirishning dolzarb masalalaridan biri kredit portfelini diversifikatsiya qilish hisoblanadi.

Mazkur jadval ma’lumotlarida Asakabankning kredit portfeli diversifikatsiyaning darajasiga baho berilgan.

2.2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Asakabankda kredit portfelining diversifikatsiya darajasi ta’minlanmagan: kreditlarning 80 %dan ortiq qismi sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning hissasiga to‘g‘ri keladi. Xalqaro bank amaliyotida umumqabul qilingan mezonga binoan, banklar kredit portfelining tarmoq yo‘nalishiga ko‘ra diversifikatsiya darajasi 25 %dan oshmasligi lozim.


<sup>51</sup> Rasm muallif tomonidan www.nbu.uz sayti (O‘zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki) ma’lumotlari asosida tuzilgan.



AT “Asakabank” kredit portfelining tarmoq tarkibi, foizda<sup>52</sup>

Ko‘rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Sanoat	85,5	80,9	84,7	83,5	82,3
Qishloq xo‘jaligi	3,5	5,9	5,1	6,8	8,9
Transport va kommunikatsiya	0,6	0,7	2,2	2,4	1,6
Qurilish	6,3	7,9	1,5	1,4	1,5
Savdo va umumiy ovqatlanish	2,5	3,6	5,9	5,4	5,1
Moddiy-texnika ta‘minoti	0,2	0,6	0,0	0,0	0,0
Uy-joy kommunal xo‘jaligi	1,4	0,3	0,4	0,4	0,6
<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

2.2-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-2021-yillarda TIF Milliy bankida kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi o‘shish sur‘atiga ega bo‘lgan. Bundan tashqari, ushbu ko‘rsatkichning amaldagi darajasi uning me‘yoriy darajasidan yuqori bo‘lgan.



**2.2-rasm. TIF Milliy bankida kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, foizda<sup>53</sup>**

Respublikamiz bank amaliyotida banklarning kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari summasi to‘liq bank xarajatlariga olib boriladi. Shu sababli, zaxira ajratmalarining miqdori oshishi bankning sof foydasi miqdori pasayishiga olib keladi. Bu banklarning likvidligi hamda to‘lov qobiliyatiga salbiy ta‘sirni yuzaga keltiradi. Chunki, sof foyda tijorat banklari

<sup>52</sup>Jadval muallif tomonidan AT “Asakabank”ning yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>53</sup>Rasm muallif tomonidan www.nbu.uz sayti (O‘zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

E'tirof etish joizki, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi tijorat banklari aktivlarining daromadlilikiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq vazifa va tadbirlarning belgilanganligi tijorat banklari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### 2.3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) Milliy bankida sof foyda, aktivlarning riskka tortilgan summasi va sof foyda darajasi

Ko'rsatkichlar	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Sof foyda, mlrd so'm	157	354	506	1 043	905
Aktivlarni riskka tortilgan summasi, mlrd. so'm	10 936	28 397	33 650	41 658	53 820
Sof foydani aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi, %	1,4	1,2	1,5	2,5	1,7

2.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, TIF Milliy banki sof foydasining miqdori 2016-2019-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ammo bankning sof foydasi miqdori 2020-yilda 2019-yilga nisbatan kamaygan. TIF Milliy banki aktivlarining riskka tortilgan summasi 2016-2020-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.


2.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, TIF Milliy banki sof foydasining darajasi faqat 2019-yilda me'yoriy talab darajasida bo'lgan, ya'ni 2,0 foizdan yuqori bo'lgan. Qolgan tahlil qilingan yillarda sof foyda darajasi past bo'lgan. Bu esa, Milliy bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

## 2.4-jadval

### AT “O‘zsanoatqurilishbank”da aktivlarning rentabelligi va kapitalning rentabellik ko‘rsatkichlari darajasi, foizda

Ko‘rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Aktivlarning rentabelligi	0,9	1,9	0,3	1,9
Kapitalning rentabelligi	8,3	11,3	2,2	15,4

Jadval ma’lumotlarig ko‘ra, O‘zsanoatqurilishbankda 2021-yilda 2018-yilga nisbatan aktivlarning rentabellik ko‘rsatkichi ham, kapitalning rentabellik ko‘rsatkichi ham o‘sgan. Bu esa, banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash borasida ijobiy holat hisoblanadi. O‘zsanoatqurilishbankda kapitalning rentabellik ko‘rsatkichi 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur’atda (7,1 f.p.) o‘sgan.




### 2.3-rasm. AT Turonbank va O‘zmilliybank AJda aktivlar rentabelligi va sof foizli marja

2021-yilda 2018-yilga nisbatan AT Turonbankda aktivlar rentabelligi ko‘tarilib, yana tushgan va sof foizli marja -0.9 % kamaygan, O‘zmilliybank AJda esa aktivlar rentabelligi 0.3 %ga va sof foizli marja 1.5 % oshgan.

Tahlil natijalari ko‘rsatdiki, 2020-2021-yillarning birinchi choragida AT “Agrobank” yalpi daromadi hajmida foizli daromadlar salmog‘i o‘sgan. Bu esa,

ijobiy holat hisoblanadi va bankning daromad bazasi barqarorligini oshib borayotganidan dalolat beradi.



**2.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik-tijorat “Asakabank”da sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi, %da**

2.4-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, birinchidan, 2017-2021-yillarda Asakabankda sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi ushbu ko‘rsatkichning me’yoriy darajasidan (2,0 %) past bo‘lgan; ikkinchidan, mazkur ko‘rsatkich darajasi 2021-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, Asakabankning investision jozibadorligini ta’minlash nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Sof foyda tijorat banklari faoliyati natijadorligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Sof foyda darajasiga baho berish uchun uni brutto aktivlarga taqqoslash ham mumkin. Ammo tijorat banklarining brutto aktivlari tarkibida umuman daromad keltirmaydigan va risk darajasi nolga teng aktivlar (kassadagi naqd pullar, bankning Markaziy bankdagi pullari va boshqalar) mavjud.

**2.5-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi, foizda**

Ko‘rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Milliy valyutadagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi	16,2	21,1	23,7	22,3	20,8
Chet el valyutasidagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi	5,8	5,8	7,1	6,9	6,7

2.5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2017-2020-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq bunday foiz stavkalari darajasi 2019-2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda inflyasiya darajasi va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi pasayganligi bilan izohlanadi (6-ilova).

2.5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan chet el valyutasida berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2019-2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, banklar aktivlarining daromadlilik darajasi o'zgarishiga ta'sir qiyuvchi asosiy omillardan biri aktivlarning riskka tortilgan summasi ko'payishi yoki kamayishi hisoblanadi. Chunki aktivlarning daromadliliigi va risk darajalari o'rtasidagi to'g'ri mutanosiblik mavjud: aktivning risk darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning daromadlilik darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu sababli, banklarda riskka tortilgan aktivlar summasi bilan sof foyda o'rtasida ham to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish mavjud.

Ta'kidlash lozimki, banklarning investitsion jozibadorligini ta'minlashda Markaziy bank orqali bajariladigan pul-kredit siyosati muhim ahamiyatga ega (dunyoda faqat 3 ta davlatda – Singapur, Saudiya Arabistoni va Lixtenshteynda Markaziy bank yo'q).

Markaziy bank pul-kredit siyosatining banklar likvidliligiga ta'sir ko'rsatuvchi instrumentlaridan biri majburiy zaxira siyosati hisoblanadi. Shunisi ahamiyatliki, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki orqali majburiy zaxira siyosatini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Bunday chora-tadbirlar majburiy zaxira siyosatining banklar likvidliliigi va depozit bazasiga nisbatan salbiy ta'sirini pasaytirish maqsadida amalga oshirilgan.

## 2.3-§. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik tahlili

Mazkur paragrafda TIF Milliy banki tomonidan mijozlarga ajratilayotgan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atlari va ushbu ko'rsatkichga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan tijorat bankining tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlardan olingan foizli daromadlarini baholash orqali kreditlar hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish va ko'p omilli ekonometrik modellarni tuzish muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan hoda, ko'p omilli ekonometrik model uchun ushbu omillar tanlandi: natijaviy omil sifatida – tijorat bankining kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi, mln. so'm ( $Y$ ), ta'sir ko'rsatuvchi omillar esa – kassali aktivlar, mln. so'm ( $X_1$ ), kreditlar, mln. so'm ( $X_2$ ), kreditlar bo'yicha zaxira, mln. so'm ( $X_3$ ), foizli daromadlar, mln. so'm ( $X_4$ ), foizli xarajatlar, mln. so'm ( $X_5$ ) va boshqa banklardan olingan kreditlarga to'langan foizlar, mln. so'm ( $X_6$ ).

Ekonometrik modellashtirishda qatnashayotgan ma'lumotlar 2017-2021-yillarning choraklari bo'yicha olindi hamda kuzatuvlar soni 20 tani tashkil etdi.

Tijorat bankining kreditlardan olinadigan foizli daromadlari hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'yicha o'tkazilgan tavsifiy statistika natijalari quyidagi 2.6-jadvalda ko'rsatilgan.

### 2.6-jadval

#### Tijorat bankining kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'yicha tavsifiy statistika<sup>54</sup>

	Y	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>	X <sub>4</sub>	X <sub>5</sub>	X <sub>6</sub>
Mean	1822485.3	4651334.9	49872654.3	1213667.6	2450190.8	1434722.5	621634.9
Median	1416293.1	4469492.2	53785984.6	801050.3	1890572.7	1189567.2	609038.5
Maximum	4742832.8	8460970.6	74033491	3115215.4	6320658.2	3464018.5	1368954.2
Minimum	179296.0	577714.1	14922856	140776.9	205130.9	125412.7	68170.24
Std. Dev.	1367659.1	2256428.3	17041423	893510.0	1835532.2	1030734.5	403394.3


<sup>54</sup> Jadval muallif tomonidan www.nbu.uz sayti (O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki) ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

	Y	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>	X <sub>4</sub>	X <sub>5</sub>	X <sub>6</sub>
Skewness	0.806967	0.180729	-0.519071	0.771637	0.715325	0.592126	0.450599
Kurtosis	2.519293	2.167344	2.331074	2.324346	2.405827	2.149415	2.046264
Jarque-Bera	2.363221	0.686641	1.271001	2.365168	1.999833	1.771623	1.434809
Probability	0.306784	0.709411	0.529670	0.306486	0.367910	0.412379	0.488017
Sum	36449706	93026679	9.97E+08	24273331	49003816	28694450	12432699
Sum Sq. Dev.	3.55E+13	9.67E+13	5.52E+15	1.52E+13	6.40E+13	2.02E+13	3.09E+12
Observations	20	20	20	20	20	20	20

2.6-jadval ma'lumotlaridan har bir omilning o'rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal hamda minimal qiymatlarni (maximum, minimum) ko'rish mumkin. Shu bilan bir qatorda har bitta omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Devation) – ya'ni standart chetlanishi koeffitsiyenti har bitta o'zgaruvchi o'rta qiymatdan qancha darajada chetlanganini ko'rsadi) qiymatlari keltirib o'tilgan.

Skewness – asimmetriya koeffitsiyenti hisoblanadi va u, agar nolga teng bo'lsa, normal taqsimot ekanini hamda taqsimotni simmetrik ekanini anglatadi. Agar bu koeffitsiyent 0 dan ancha farq qiladigan bo'lsa, unda taqsimot asimmetrik bo'ladi (demak, simmetrik emas). Agar asimmetriya koeffitsiyenti 0 dan kattaroq, ya'ni musbat qiymatni qabul qilsa, u holda qaralayotgan omil bo'yicha normal taqsimot chizig' o'ngga siljigan bo'ladi. 0 dan kichik, ya'ni manfiy qiymatni qabul qilsa, u holdada ko'rilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot chizig'i chapga siljigan bo'ladi.

1-jadval ma'lumotlaridan shu holatni ko'rishimiz mumkinki, faqat kreditlar (X<sub>2</sub>) omilining asimmetriya koeffitsiyenti manfiy qiymat qabul qilgan, boshqa ta'sir ko'rsatuvchi omillarning koeffitsiyentlari musbat qiymat qabul qilgan.



## 2.5-rasm. Omillarning taqsimot funksiyalari grafiklari<sup>55</sup>

Keltirilgan omillarning taqsimot funksiyalari grafigi 2.5-rasmda ko'rsatilgan.

2.5-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan hamma omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunadi. Normal taqsimot grafigining nazariy qiymatlaridan omillarning hisoblangan taqsimot grafiklari asimmetrik holda joylashgan, ya'ni surilgan. Ushbu surilishlar asosan o'rganilayotgan omillarni dinamikasidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Ayrim yillarda ba'zi omillar keskin ortgan bo'lsa, ayrimlarida o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmagan.

Ayrim omillar dinamikasida "anomal" qiymatlar kuzatilgan. Ya'ni, ko'rsatkichning ayrim qiymati ma'lum bir davrga kelib, yoki keskin o'sgan yoki keskin kamaygan. Natijada ayrim qatorlarda statsionarlikka ta'sir ko'rsatgan.

Natijaviy omilning (Y) normal taqsimot qonuniga bo'ysunishini tekshirish uchun Jak-Bera mezonidan foydalanildi. Bu mezon statistik mezon hisoblanib, kuzatuvlarning xatolarini normal taqsimot momentlari va uchinchi moment

<sup>55</sup> Rasm muallif tomonidan [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz) sayti (O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki) ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.



(asimmetriya) hamda to‘rtinchi momenti (ekssess) normal taqsimotga tekshiriladi hamda  $S = 0$  va  $K = 3$ .

Tahlil natijalariga ko‘ra, natijaviy omil normal taqsimotga bo‘yso‘nadi. Bu hisoblab chiqilgan parametrlar hamda mezonlar tomonidan tasdiqlanadi, ya‘ni Jak-Bera mezoni orqali aniqlangan koeffitsiyenti 35,7313 ga teng hamda uning ehtimolligi (probability) 0,05 dan ancha kichik (prob=0.000000).

Omillar o‘rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi ko‘rsatdiki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari – natijaviy omil ( $Y$ ) hamda unga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi bog‘lanishlar zichligini ko‘rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil – tijorat banking kreditlardan olingan foizli daromadlar hajmi ( $Y$ ) va ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasida turli xil bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Demak, banking kreditlardan oladigan foizli daromadlari miqdori ( $Y$ ) hamda kassali aktivlar miqdori ( $X_1$ ) o‘rtasida bog‘lanishning zichligi 0,5643 ga teng. Bu esa tijorat banking kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) va kassali aktivlar hajmi ( $X_1$ ) orasidagi o‘rtacha bog‘liqlik mavjudligidan darak beradi. Tijorat banking kreditlardan olingan foizli daromadlar hajmi ( $Y$ ) va kreditlar hajmi ( $X_2$ ) o‘rtasida bog‘lanish zichligini 0,6398 ga tengligi ushbu ikki omil o‘rtasida o‘rtachadan yuqori bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi.

## 2.7-jadval

### **“Bankning kreditlardan olingan foizli daromadlar hajmi va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘yicha hisoblangan ko‘p omilli ekonometrik model parametrlari”<sup>56</sup>**

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	0,052247	0,015759	3,315375	0.0341
X2	0,013011	0,005615	2,317191	0.0109
X3	0,095988	0,032715	2,934067	0.0254
X4	1,032694	0,340797	3,030232	0.0167
X5	-0,742351	0,315843	-2,350381	0.0093

<sup>56</sup> Jadval muallif tomonidan [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz) sayti (O‘zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki) ma‘lumotlari asosida ishlab chiqildi.

X6	-0,619929	0,199992	-3,099769	0.0361
C	261277,3	110017,9	2,374862	0.1704
R-squared	0.981732	Mean dependent var		1822485.
Adjusted R-squared	0.973300	S.D. dependent var		1367659.
S.E. of regression	223476.0	Akaike info criterion		7.74121
Sumsquaredresid	6.49E+11	Schwarz criterion		8.08972
Loglikelihood	-270.4121	Hannan-Quinn criter.		7.80924
F-statistic	116.4366	Durbin-Watson stat		2.52355
Prob(F-statistic)	0.000000			

Dependent Variable: Y; Method: Least Squares; Date: 10/08/22 Time: 10:42; Sample: 2017Q1 2021Q4 Included observations: 20.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi (1) noma'lum  $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$  ko'rsatkichlarni aniqlash uchun "eng kichik kvadratlar usuli" qo'llanildi.

Yuqorida keltirilgan 2.7-jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda, bankning kreditlardan olinadigan foizli daromadlarini miqdori ( $Y$ ) bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishini ifodalaymiz:

$$\hat{Y} = 261277,3 + 0,052X_1 + 0,013X_2 + 0,096X_3 + 1,033X_4 - 0,742X_5 + 0,619X_6$$

(110017.9) (0.015) (0.005) (0.033) (0.341) (0.315) (0.199)'

(dumaloq qavsdagi qiymatlar har bir omil bo'yicha hisoblangan standart xatoliklar qiymatlarini ko'rsatadi).

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model ko'rsatadiki, bankda kassali aktivlar ( $X_1$ ) o'rtacha bir mln. so'mga ortsa, bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) o'rtacha 0,052 mln. so'mga ortar ekan. Bankning kreditlari hajmi ( $X_2$ ) o'rtacha bir mln. so'mga ortsa, kreditlardan olingan foizli daromadlar hajmi ( $Y$ ) o'rtacha 0,013 mln. so'mga ortar ekan. Bankning kreditlar bo'yicha zaxirasi ( $X_3$ ) o'rtacha 1 mln. so'mga ortsa, bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) o'rtacha 0,096 mln. so'mga ortar ekan.

Bankning foizli daromadlari ( $X_4$ ) o'rtacha 1 mln. so'mga ortishi bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmini ( $Y$ ) o'rtacha 1,033 mln. so'mga ortishiga olib kelar ekan. Bankning foizli xarajatlarini ( $X_5$ ) o'rtacha 1 mln. so'mga ortishi, bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmini ( $Y$ ) o'rtacha 0,742

mln. soʻmga kamayishiga olib kelar ekan. Bankning boshqa banklardan olingan kreditlarga toʻlangan foizlarini ( $X_6$ ) oʻrtacha 1 mln. soʻmga ortishi bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmini ( $Y$ ) oʻrtacha 0,619 mln. soʻmga kamayishiga olib kelar ekan.

Bankning kreditlardan olinadigan foizli daromadlari miqdori boʻyicha hisoblangan koʻp omilli ekonometrik model (2) sifatini aniqlash uchun determinatsiya koeffitsiyentini tekshirib koʻramiz. Determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omilni necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topganligini koʻrsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2$  - R-squared 0,9817) ga teng. Bu bankning kreditlardan olinadigan foizli daromadlari miqdorining ( $Y$ ) 98,17 foizi (2) koʻp omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan iborat ekanligini koʻrsatadi. Qolgani, yaʼni 1,83 foizi (100,0-98,17) esa hisobga olinmagan omillardan tashkil topganligini koʻrsatyapti.

## **2-bob boʻyicha xulosa**

Tijorat banklari aktivlari rentabelligini tahlili shuni koʻrsatdiki:

– 2017-2019 yillarda TIF Milliy bankida aktivlarning rentabellik darajasini oshishi kuzatilgan, ammo, 2019-2021-yillarda bu koʻrsatkich yuqori darajada pasaygan;

– Asakabankda aktivlarning rentabelligi koʻrsatkichi 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori surʼatda pasaygan. Bundan tashqari, tahlil qilingan davr moabaynida Asakabankda aktivlarning rentabelligi koʻrsatkichining darajasi ancha past shakllangan. Mazkur holatlar Asakabank aktivlarining rentabelligini oshirish jihatidan salbiy holat sanaladi;

– TIF Milliy bankida 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sof foizli marja va bir soʻmlik kreditga mos keladigan daromad miqdori koʻrsatkichlarining darajasi oshgan;

– TIF Milliy bankida bir soʻmlik aktivga toʻgʻri keluvchi daromad darajasi 2017-2021-yillarda oʻsish holati kuzatilgan;

– 2017-2021-yillarda Asakabankda kredit portfelining diversifikatsiya darajasi ta'minlanmagan: kreditlarning 80 %dan ortiq qismi sanoat korxonalariga berilgan kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan;

– 2017-2021-yillarda TIF Milliy bankida kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga ajratilgan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi o'sish holati kuzatilgan. Bundan tashqari, ushbu ko'rsatkichning amaldagi darajasi uning me'yoriy darajasidan yuqori bo'lgan;

– TIF Milliy banki sof foydasi miqdori 2016-2019-yillarda o'sish holati kuzatilgan. Ammo, bankning sof foydasi miqdori 2020-yilda 2019-yilga nisbatan kamaygan;

– TIF Milliy banki aktivlarining riskka tortilgan summasi 2016-2020-yillarda o'sish holati kuzatilgan.

– TIF Milliy banki sof foydasining darajasi faqat 2019-yilda me'yoriy talab darajasida bo'lgan, ya'ni 2,0 foizdan yuqori bo'lgan. Qolgan tahlil qilingan yillarda sof foydaning darajasi past bo'lgan;

– O'zsanoatqurilishbankda kapitalning rentabellik ko'rsatkichi 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda (7,1 f.p.) o'sgan;

– 2021-yilda 2018-yilga nisbatan AT Turonbankda aktivlar rentabelligi ko'tarilib yana tushgan va sof foizli marja -0.9 % kamaygan, O'zmilliybank AJda esa aktivlar rentabelligi 0.3 % ga va sof foizli marja 1.5 % oshgan.

Tijorat banklari aktivlarining rentabelligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik tahlili ko'rsatdiki:

– ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunadi va normal taqsimot grafigining nazariy qiymatlaridan omillarning hisoblangan taqsimot grafiklari asimmetrik holda joylashgan, ya'ni surilgan. Bu siljishlar asosan o'rganilayotgan omillar dinamikasidagi o'zgarishlarni ifodalaydi;

– bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari miqdori (Y) va kassali aktivlar miqdori ( $X_1$ ) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,5643 ga teng. Bu esa tijorat bankining kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi (Y) va kassali aktivlar hajmi

( $X_1$ ) o'rtasida o'rtacha bog'lanish mavjudligidan darak beradi. Tijorat bankining kreditlardan olingan foizli daromadlar hajmi ( $Y$ ) va kreditlar hajmi ( $X_2$ ) o'rtasida bog'lanish zichligini 0,6398 ga tengligi ushbu ikki omil o'rtasida o'rtachadan yuqori bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi;

– bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishi quyidagicha bo'ldi:

$$\hat{Y} = 261277,3 + 0,052X_1 + 0,013X_2 + 0,096X_3 + 1,033X_4 - 0,742X_5 + 0,619X_6$$

(110017.9) (0.015) (0.005) (0.033) (0.341) (0.315) (0.199)

– hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model ko'rsatadiki, bankda kassali aktivlar ( $X_1$ ) o'rtacha bir mln. so'mga ortsa, bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) o'rtacha 0,052 mln. so'mga ortar ekan. Bankning kreditlari hajmi ( $X_2$ ) o'rtacha bir mln. so'mga ortsa, kreditlardan olingan foizli daromadlar hajmi ( $Y$ ) o'rtacha 0,013 mln. so'mga ortar ekan. Bankning foizli daromadlari ( $X_4$ ) o'rtacha 1 mln. so'mga ortishi bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmini ( $Y$ ) o'rtacha 1,033 mln. so'mga ortishiga olib kelar ekan.


– Bankning foizli xarajatlarini ( $X_5$ ) o'rtacha 1 mln. so'mga ortishi, bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmini ( $Y$ ) o'rtacha 0,742 mln. so'mga kamayishiga olib kelar ekan. Bankning boshqa banklardan olingan kreditlarga to'langan foizlarini ( $X_6$ ) o'rtacha 1 mln. so'mga ortishi bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) o'rtacha 0,619 mln. so'mga kamayishiga olib kelar ekan.

### III bob. O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING RENTABELLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

#### 3.1-§. Mamlakat tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bilan bog‘liq dolzarb muammolar

Dissertatsion tadqiqotning ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar O‘zbekiston banklari aktivlarining rentabelligini oshirishga mo‘jallangan bir qancha muhim muammolar mavjudligini ifodalaydi. Bulardan asosiylari sifatida quyidagilarni alohida ko‘rsatish mumkin:

1. Banklar tomonidan ajratilgan kreditlar salmog‘ida muddati o‘tgan qarzdorlik miqdorining katta ekani.



3.1-rasm. “Respublika tijorat banklari kreditlarining jami hajmida muammoli kreditlar ulushi”<sup>57</sup>

3.1-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-2021-yillarda respublika banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning jami salmog‘ida muammoli kreditlar ulushining o‘shish holatlarini kuzatilgan. Bundan tashqari, 2022-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan, bu ko‘rsatkichning amaldagi darajasi uning ruxsat berilgan darajasidan (3,0 %) fuch darajada yuqori bo‘lgan. Mazkur holat banklarning likvidliligiga oid yuqori salbiy ta’sirni vujudga keltiradi.

“2021-yil 1-yanvar holatiga muammoli kreditlarni iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi sanoatning salmog‘i 28 foizni, savdo hamda umumiy ovqatlanishda 13 foizni, qishloq xo‘jaligida 11 foizni, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishda 8 foizni, qurilishda 5 foizni, transportda, kommunikatsiyada, moddiy va texnik

<sup>57</sup> Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

ta'minotni takomillashtirishda 1 foizni va boshqa sohalar ulushida 32 foizni tashkil qildi"<sup>58</sup>.

Ta'kidlash joizki, davlat dasturlari loyihalariga berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik miqdori katta bo'lib, mamlakatimiz Prezidentining "2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Moliya vaziriga "davlat dasturlari doirasida berilgan va qaytmagan kreditlarni tijorat banklariga qaytarish vazifasi yuklanganligi banklar likvidligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi"<sup>59</sup>.

Banklar tomonidan muddati uzaytirilgan kreditlar qoldig'i "2022-yil 1-yanvar sanasiga 88,4 trillion so'mni tashkil etib, jumladan 73,9 trillion so'mi (84 foiz) yuridik shaxslar va 14,5 trillion so'mi (16 foiz) jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi. Bunday kreditlar qoldig'ining 12,8 %i yoki 11 trln. so'mi muammoli kreditlarga aylangan bo'lsa, 13,1 foizi yoki 12 trln. so'mi 30 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan potensial muammoli (substandart) kreditlarga aylangan. 2021-yil yakunlari bo'yicha jami to'lov muddati uzaytirilgan kreditlar qoldig'i bank tizimi kredit portfelining 27 foizini (88 trillion so'mni) tashkil etgan holda, ayrim banklarda bu ko'rsatkich o'rtachadan sezilarli darajada yuqori shakllandi

Xususan, Xalq bankida 42 foiz, Turonbank va O'zsanoatqurilishbankda 41 foiz, Qishloq qurilish bankda va Asakabankda 38 foizni tashkil etmoqda. 2021-yilda tijorat banklari balansidagi muammoli kreditlar ulushini kamaytirish tadbirlari doirasida bir yildan ortiq muddanga qaytarilmagan 3,3 trillion so'mlik, shundan Oilaviy tadbirkorlikni takomillashtirish dasturlariga ajratilgan 251 milliard so'mlik umidsiz kreditlar banklar balansidan chiqarildi.

Muammoli kreditlarning tijorat banklarining moliyaviy barqarorlik darajasiga salbiy ta'sirini bartaraf qilish borasida banklar va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tegishli tadbirlar muammoli kreditlar salmog'ining 2021- yil yakuni bo'yicha 5,2 foiz (16,9 trillion so'm) darajasida shakllanishiga asos bo'ldi.

---

<sup>58</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yildagi faoliyati to'g'risida hisobot//www.cbu.uz.

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. www.lex.uz.

Pandemiyaning iqtisodiyotga salbiy ta'sirini yumshatish chora-tadbirlari doirasida 2021-yilda faoliyati to'liq tiklanmagan 14 647 ta xo'jalik subyekting 21,4 trln. so'mlik (bank tizimi kredit portfelining 15 foizi) potensial muammoli kreditlarni qaytarish muddatlari takroran 3-6 oyga uzaytirildi.”<sup>60</sup>.

Davlat dasturlari loyihalarini banklarning ishtirokisiz moliyalashtirishni imkoniyati yoq. Har bir dasturda bank tomonidan ajratilgan kredit qaytmasa, uning qaytarilishini ta'minlovchi aniq manbalar ko'rsatilishi kerak. Respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan juda ko'p davlat dasturlarida banklardan ana shu dastur bo'yicha ajratilgan kreditlar doirasida muddati o'tgan qarzdorliklarni qaytarish manbasi ko'rsatib berilmagan.

Shu tufayli, davlat dasturlari doirasida ajratilgan kreditlardan yirik hajmdagi muddati o'tgan qarzdorliklar paydo bo'lmoqda hamda ularning qaytarilmasligi muammoli kreditlar miqdorining oshishiga olib kelmoqda. Bu holat banklarning likvidliligiga va moliyaviy barqarorligiga ko'ra salbiy vaziyalarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklarida transformatsiya riski darajasining oshish holati kuzatilyapti.

Alohida aytishimiz lozimki, kreditlar respublika banklarining aktivlari tarkibida juda yuqori ulushnini tashkil qiladi. (3.1-jadval).

3.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, respublikamiz tijorat banklarining aktivlari tarkibida kreditlar mutlaq yuqori salmoqni egallaydi.

2. Banklar aktivlari rentabellik darajasi pastligi. Shu bilan bir qatorda, banklar aktivlari rentabellik darajasi past ekanligi bir qancha sabablar orqali izohlanadi hamda mulohazalarimizga ko'ra, ularning muhimlari sifatida sabablarni aytib o'tishni lozim topdik:

muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlariga oid darajasi baland ekanligi;  
foizli daromadlar va foizli xarajatlar orasidagi mutanosiblik ta'minlanmaganligi;

sof foizli daromadlar o'sishi darajasi va brutto aktivlar o'sishi darajalari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmaganligi.

---

<sup>60</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot//www.cbu.uz.



### 3.1-jadval

#### “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibi, foizda”<sup>61</sup>

Aktivlar tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Kassali aktivlar	17,1	17,2	17,3	18,1	20,0
Qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar	1,1	1,2	2,6	4,4	5,7
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo‘yicha majburiyatlari	0,9	0,2	0,4	0,3	0,3
Kreditlar	76,8	76,1	73,8	71,1	68,1
Asosiy vositalar	1,6	2,1	2,3	2,5	2,6
Aktivlar bo‘yicha hisoblangan foizlar	1,3	1,2	2,2	2,1	2,2
Boshqa aktivlar	1,2	2,0	1,4	1,5	1,1
<b>Aktivlar – jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

Respublika banklarida foizli daromadlar va foizli xarajatlar orasidagi mutanosiblikni ta’minlashda to’sqinlik qilib tirgan asosiy sabablar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

banklarning qimmatli qog‘ozlar orqali bajarayotgan investitsion operatsiyalari rivojlanmaganligi sababli banklarning foizli daromadlari tarkibida qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshirilayotgan investitsion operatsiyalardan olingan foizli daromadlar kichik ulushga ega ekanligi;

banklarning qimmatli qog‘ozlar orqali amalga oshirayotgan emission operatsiyalari takomillashmaganligi;

muammoli kreditlar miqdorinig katta ekanligi sababli kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi yuqori ekanligi.

Respublika banklarining aktiv operatsiyalari bilan bog‘liq risklarini kamytirish bilan aloqador dolzarb masalalardan yana birtasi pul ko‘rinishidagi likvidli aktivlarning brutto aktivlardagi ulushi va mijozlardan va banklardan qabul qilingan mablag‘larning passivlar hajmidagi ulushi o‘rtasidagi mutanosiblik mavjud emasligidir.

Dissertatsion tadqiqotning ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar ko‘rsatdiki, respublikamizning tahlil qilingan banklarida daromad keltirmaydigan

<sup>61</sup> Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

pul ko‘rinishidagi aktivlarning brutto aktivlar tarkibidagi ulushi yuqoriligi bilan bir qatorda, ancha qimmat resurs sanaladigan banklararo kreditlarning majburiyatlar tarkibidagi salmogi sezilarli darajada yuqoriligidir.

Shu bilan birga, banklar brutto aktivlari tarkibida foyda keltirmaydigan pul shaklidagi aktivlar salmog‘i baland ekanligi talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar tarkibidagi ulushii yuqori bo‘lgan holatda banklar tomonidan lahzalik likvidlilik koeffitsiyenti hamda joriy likvidlilik koeffitsiyenti bo‘yicha belgilangan prudensial nazorat talablarini bajarish maqsadida yirik miqdorda pul ko‘rinishidagi yuqori likvidli aktivlarni saqlab turishga majbur bo‘layotganligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiyot sohasidagi yetakchi davlatlarning banklardan farqli ravishda, respublikamiz banklari likvidliligini ta‘minlashda yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni yo‘naltirish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaydi. Sababi, banklar aktivlarining umumiy hajmida yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlar bo‘icha investitsiyalarning miqdori kichik ulushni tashkil qiladi. Bu holatda banklar joriy likvidliligini daromad keltirmaydigan pul ko‘rinishidagi aktivlar orqali ta‘minlashga majbur bo‘ladi.

Hozirgi kunda respublikamiz banklari joriy likvidliligini ta‘minlash maqsadida pul ko‘rinishidagi daromad keltirmaydigan aktivlarning asosiy uch turidan foydalanilmoqda:

- kassadagi naqd pullar;
- banklarning Markaziy bankdagi so‘mda ochilgan “Nostro” vakillik hisobraqamidagi pul mablag‘lari;
- banklarning boshqa xorijiy banklardagi ochilgan “Nostro” vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag‘lari.

Yuqorida ko‘rsatilgan aktivlar banklariga daromad olib kelmaydi. Buning sababi shundaki, birinchidan, Markaziy bank banklarning milliy valyutadagi “Nostro” vakillik hisobvarag‘idagi pullarga foiz to‘lovlarini amalga oshirmaydi; ikkinchidan, xorijiy banklar respublikamiz banklarining balansida chet el valyutalarida ochilgan “Nostro” vakillik hisobvaraqlarining ishchi qoldig‘iga foiz

to'lovlarini amalga oshirmaydi; uchinchidan, respublikamizdagi banklar mijozlardan naqd pulmablag'larini olganligi uchun ham, naqd pulmablag'larini berganligi uchun ham to'lovni amalga oshirmaydi.

Banklar balansida yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushining yetarli darajada katta bo'lishi tijorat banklarini daromad keltirmaydigan pul ko'rinishidagi aktivlar orqali joriy likvidlilikni ta'minlash zaruratidan xalos etadi.

Banklarda aktivlar rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan sabablardan biri chet el kreditlarini banklar majburiyatlarining tarkibida yirik hajmga ega ekanligidir.

Chet el banklari va xalqaro moliya institutlaridan qabul qilingan xalqaro kreditlar juda qimmat resurs hisoblanadi. Bu holat quyidagi sabablarga asoslanib izohlanadi:

- chet el banklari mijozlardan qabul qilgan depozitlarni mamlakatimiz banklariga resurs ko'rinishida, o'zlarining spreadini qo'yub keyin, beradi;

- pandemiya oqibatlarining kamayayotganligi chet el kreditlariga talab ortishiga olib keladi hamda suzuvchi stavka bo'yicha olingan kreditlarning foiz to'lovlari oshadi;

- milliy valyutaning qadrsizlanish darajasi yuqori bo'lgan sharoitda chet el valyutasida olingan kreditlarga to'lovlar summasi miqdori doimiy tarzda ko'tarilib boradi.

Bankining resurs bazasi yetarli bo'lganda, ular boshqa banklardan kredit mablag'larini yirik miqdorda jalb etmaydi. Ammo boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda, shuningdek, respublikamizda tijorat banklarining resurs bazasi yetarli emasligi sababidan tijorat banklarida chet el banklaridan hamda xalqaro moliya institutlaridan yirik hajmda kreditlar jalb qilishga majbur bo'limmoqda.

Dissertatsion tadqiqotning ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, birinchidan, 2017-2021-yillarda TIF Milliy banki, Asakabank va Sanoatqurilishbankda aktivlarning rentabellik darajasi past bo'lgan; ikkinchidan, aktivlarning rentabellik darajasi TIF Milliy banki va Sanoatqurilishbankda 2020 va

2021-yillarda past bo‘lgani holatda, Asakabankda 2021-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

“TIF Milliy bankida 2017-2021-yillarda aktivlarning rentabellik ko‘rsatkichi past darajada bo‘lganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga ajratilgan zaxira ajratmalari hajmitahlil qilingan davr mobaynida o‘shish ko‘rinishiga hamda yuqori o‘shish holatiga ega ekanligi (bu zaxira ajratmalari miqdori 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 4,8 martaga oshdi);

– foizli xarajatlar miqdorining tahlil qilingan davr mobaynida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lganligi (foizli xarajatlar miqdorini o‘shishi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 4,1 martani tashkil etdi);

– tahlil qilingan davr mobaynida bank majburiyatlarining yuqori o‘shish sur‘atiga ega bo‘lganligi (2021-yilda 2017-yilga nisbatan bankning majburiyatlari summasi 61,0 foizga oshdi)”<sup>62</sup>.

“Asakabankda 2017-2021-yillarda aktivlarning rentabellik ko‘rsatkichi past darajada bo‘lganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– bank aktivlarining o‘shish darajasi sof foydaning o‘shish darajasidan yuqori bo‘lganligi (2021-yilda 2017-yilga nisbatan bankning sof foydasini o‘shish sur‘ati 1,9 martani tashkil etgani holda, brutto aktivlarning o‘shish sur‘ati 2,1 martani tashkil etdi);

– kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari miqdorini tahlil qilingan davr mobaynida o‘shish tendensiyasiga va yuqori o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lganligi (mazkur zaxira ajratmalari miqdori 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 96,4 foizga oshdi);

– tahlil qilingan davr mobaynida foizli xarajatlar miqdori yuqori o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lganligi (foizli xarajatlar miqdori o‘shishi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 4,8 martani tashkil etdi)”<sup>63</sup>.

---

<sup>62</sup> TIF Milliy banki. Balans hisoboti. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.nbu.uz](http://www.nbu.uz).; TIF Milliy banki. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.nbu.uz](http://www.nbu.uz)

<sup>63</sup> Asakabank. Balans hisoboti. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021. [www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz).; Asakabank. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz)

“Sanoatqurilishbankda 2017-2021-yillarda aktivlarning rentabellik ko‘rsatkichi past darajada bo‘lganligi quyidagi sabablar orqali izohlanadi:

– tahlil davri mobaynida foizli xarajatlar miqdorining yuqori o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lganligi (2021-yilda 2017-yilga nisbatan bank majburiyatlarining o‘shish sur‘ati 5,3 martani tashkil etdi);

– kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari miqdori tahlil qilingan davr mobaynida o‘shish tendensiyasiga va yuqori o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lganligi (ushbu zaxira ajratmalari miqdori 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 29,5 foizga oshdi)”<sup>64</sup>.

Banklar aktivlari rentabellik darajasi past ekanligi ularning investitsion jozibadorligini ta‘minlashga qarshilik qiladi. Sababi investorlar o‘zlari uchun ma‘qul darajadagi daromad olishni xohlaydilar. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi 2020-yil 12-mayda qabul qilingan edi. Strategiyada “bank ishida yetarli darajada tajriba, bilim va obro‘ga ega strategik investorlarni jalb qilgan holda, qator tijorat banklarida davlat ulushini kamaytirish ko‘zda tutilgan”<sup>65</sup>. Ammo oradan bir yarim yil o‘tsa hamki, katta banklarning birontasining aksiyasi chet ellik investorlarga sotilgani yo‘q. Sabablari shunday izohlanadiki, davlat banklarining rentabellik darajasi past.

3. Respublikamiz banklarning qimmatli qog‘ozlar orqali amalga oshiradigan investitsion operatsiyalari takomillashmaganligi. Respublikada inflyatsiya hamda so‘mning devalvatsiya darajasini yuqoriligi oqibatida banklar tomonidan milliy valyutada chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar qiymatining pasayib ketishiga olib keldi.

Valyuta siyosatining liberallashtirishidan keyin 2017-yil 5-sentabrdan so‘mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi ikki marta yaqin ko‘tarildi, ya‘ni so‘mning AQSh dollariga nisbatan qadri pasayishining darajasi deyarli 200 foizni tashkil qildi. Bu holat, yuqori sur‘atdagi qadrsizlanish sur‘ati bo‘lib, so‘mda


---

<sup>64</sup> Sanoatqurilishbank. Balans hisoboti. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//www.sqb.uz.; Sanoatqurilishbank. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//www.sqb.uz

<sup>65</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.

chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning real bahosi tushishiga olib keldi. Pirovard natijada rezidentlar tomonidan milliy valyutada emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorlik darajasi pasaydi.

Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi hamda so'mning devalvatsiya darajasi ko'tarilishi mahsulot hamda tovarlar narxlarining ko'tarilib ketishiga olib keldi. Bu korxonalarining rentabelligi tushishiga olib keldi. Mazkur holat, ya'ni korxonalar rentabelligi pasayishi ularni qimmatli qog'ozlarga foizlarni hamda dividendlarni to'lab berish imkoniyatlarini pasaytirib yuboradi.



### **3.2-rasm. “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida kreditlar va qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalari salmog‘i, foizda”<sup>66</sup>**

Asosan, 2017-yilda so'mning oldingi yillarga nisbatan keskin qadri tushib ketdi. Bu, so'mdagi qimmatli qog'ozlarning bozor narxlari doirasida salbiy ta'sirni keltirib chiqardi.

3.2-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, respublikamiz banklari aktivlarining jami miqdorida kreditlarning ulushi eng yuqori salmoqni tashkil qiladi. Bu esa, banklarning qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarining brutto aktivlar miqdoridagi hajmi kichikligidan darak beradi.

<sup>66</sup> Rasm muallif tomonidan [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2021-yilda inflyatsiya doirasida belgilab qo'yilgan ijobiy ko'rsatkichga erishishiga muvaffaq bo'lindi, ya'ni inflyatsiya bo'yicha yillik daraja 9,98 foiz bo'ldi. Lekin, 2022-yil esa inflyatsiya bo'yicha belgilab qo'yilgan yaxshi natijalarga erishilmadi, monetar siyosatning 2022-yil hamda 2023-2024-yillar uchun mo'ljallangan muhim yo'nalishlarida 2022-yilda inflyatsiyaning yillik darajasini 8-9 % daraja atrofida bo'lishi prognoz qilingandi. Ammo 2022-yil inflyatsiyaning yillik ko'rsatkichi 12,3 foizni tashkil qilgan.

2022-yilda mamlakatimizda inflyatsiya bo'yicha yaxshi ko'rsatkichlarga erishilmaganining asosiy sababi quyidagilardan iborat:

1. Asosiy oziq-ovqat hamda import mahsulolari bahosining yuqori sur'qlarda o'sishi inflyatsiya darajasini yuqori bo'lishiga olib keldi. 2022-yil uchun inflyatsiya ko'rsatkichi 13,8 foiz bo'ldi.

2. Iqtisodiyot tizimidagi yuqori inflyatsiya jarayonlari, yoqilg'i-energetika resurslarini, muhim oziq-ovqat tovarlari hamda import xomashyolari baholari oshishi 2022-yil inflyatsiya kutilmalarining salbiy bo'lishiga sabab bo'ldi.

3. Pul massasining o'sish darajasi yuqori bo'ldi. 2022-yil pul massasining yillik o'sish darajasi mamlakatimizda 30,2 foiz bo'ldi.

4. Banklar aktivlariga aloqador risklarni boshqarish amaliyoti yaxshi takomillashtirilmaganligi. So'mning yuqori sur'atlarda qadrsizlanishi oqibatida benefitsiarlarning so'mdagi resurslari chet eldan import qilingan uskunalarga to'lovini amalga oshirishga yetarli bo'lmay qoladi. E'tiborlisi shundaki, pul birligi ko'p yillardan beri qadrsizlanib kelayotgan mamlakatimiz uchun moliyaviy risklar juda muhim ahamiyatga ega.

Foiz risklari ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo'naltirilgan chet el kreditlarining asosiy qismi (70 foizdan ko'pi) suzuvchi foiz stavkalarida olingan kreditlardan iboratdir.

Ayni paytdagi pandemiya sharoitida xorijiy kreditlarga talab pasayib borayotganligi uchun ularning foiz stavkasi darajasi past bo'lib turibdi. Lekin pandemiyadan keyin dunyo iqtisodiyotining qayta tiklanishi, shaksiz, xorijiy

kreditlar foiz stavkalarini ko'tarilishiga olib keladi. Buning natijasida, suzuvchi stavkada jalb qilingan xorijiy kreditlarga to'lovlar miqdori yuqori darajada ortadi.

Xalqaro banklar, shuningdek, transnatsional banklar hamisha suzuvchi foiz stavkasiga ega xorijiy kreditlar berishdan manfaatdordir. Buning sabablari shuki, xorijiy kreditlar suzuvchi stavka bo'yicha berilganda, ularning bozor narxi qanday o'zgarsa ham kredit bergan bank oladigan spred (marja) o'zgarmaydi. Xorijiy kreditlarni jalb qiluvchilar esa, hamisha xorijiy kreditlarni o'zgarmaydigan (qat'iy o'rnatilgan) stavkada olishdan manfaatdordirlar. Sababi, xorijiy kreditlar o'zgarmaydigan stavkada jalb qilinganda, ularning bozor narxlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, kreditlarni olingan davrdagi stavka bo'yicha to'laydi.

Dastur tashabbuskori reputatsiyasining yomonlashishi uning investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga kerakli bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatini keskin pasaytirib yuboradi. Bu holatda, uning banklardan kredit olishi qiyinlashadi. Ya'ni banklar reputatsiyasi yomonlashgan yuridik shaxslarga kredit berishni istamaydi, chunki bundan manfaatdorlik darajasi past. Bazil-2 standartida taklif qilingan standartlashgan yondashuvda e'tirof etilishicha, "kredit reytingi past bo'lgan yuridik shahslargalarga berilgan kreditlarning risklilik darajasi yuqori bo'ladi"<sup>67</sup>.

Respublika banklarida qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiya darajasi pastligi qimmatli qog'ozlar portfelining moliyaviy risklarga ta'sirchanligini pasaytirishga to'sqinlik qiladi.

Iqtisodchi olimlarning mulohazalariga ko'ra, "banklarning qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning passiv strategiyasida bozordagi barcha ma'lumotlar qimmatli qog'ozlarning bozor kotirovkalarida aks etadi. Shu sababli, passiv investorlar samarali bozor gipotezasiga ishonadilar va tabiiyki, spekulyativ operatsiyalardan manfaat ko'rishni ko'zda tutmaydilar"<sup>68</sup>.

"Banklar qimmatli qog'ozlar portfelini sifatli boshqarish bo'yicha aktiv strategiyasi qimmatli qog'ozlarni, qaytadan sotib foyda olish maqsadida qisqa

---

<sup>67</sup>Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org/publications>.

<sup>68</sup> Казаков В.А., Тарасов А.В., Зубицкий А.Б. Теоретические аспекты осуществления портфельных инвестиций/ Финансы и кредит. - 2006. - № 7. - С. 27 – 32.



muddatga sotib olishni koʻzda tutadi. Shu sababli, aktiv strategiya qimmatli qogʻozlar portfeli tarkibini, bozor konyunkturasi oʻzgarishiga bogʻliq holda, doimiy ravishda oʻzgartirib turishni talab qiladi”<sup>69</sup>.

Respublika Markaziy banki tomonidan “tijarat banklarining qimmatli qogʻozlar bilan bajaradigan investitsion operatsiyalariga nisbatan uchta asosiy iqtisodiy koʻrsatkich belgilangan:

1. Bankning bir emitenti qimmatli qogʻozlariga yoʻnaltirilgan investitsiyalarning eng yuqori darajasi.

2. Ushbu iqtisodiy meʼyor tijorat bankining birinchi darajali kapitaliga nisbatan oʻrnatilgan boʻlib, uning meʼyoriy darajasi 15 % qilib belgilangan.

3. Tijorat bankning sotib olish va sotish uchun moʻljallangan qimmatli qogʻozlarga qiladigan investitsiyalarining eng yuqori darajasi.

Ushbu iqtisodiy meʼyor tijorat bankining birinchi darajali kapitaliga nisbatan belgilangan boʻlib, uning meʼyoriy darajasi 25 % qilib belgilangan.

3. Bankning barcha emitentlar qimmatli qogʻozlariga yoʻnaltirilgan investitsiyalarning eng yuqori darajasi.

Ushbu iqtisodiy meʼyor tijorat bankining birinchi darajali kapitaliga nisbatan oʻrnatilgan boʻlib, uning meʼyoriy darajasi 50% qilib belgilangan”<sup>70</sup>.

Respublikamiz banklari professional qatnashchi sifatida qimmatli qogʻozlar bozorining muhim qatnashchisi ekanligi uchun, respublikamizda qimmatli qogʻozlar bozorini takomillashtirilishi banklarning qimmatli qogʻozlar orqali amalga oshiradigan operatsiyalarini rivojlantirishga kuchli taʼsir koʻrsatadi.

Respublikamiz Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan Yangi Oʻzbekistonning 2022-2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasida “qimmatli qogʻozlar bozoridagi aylanmaning yillik hajmi

---

<sup>69</sup> Аксенов В.С., Зубов Я.О. Формирование и управление инвестиционным портфелем в условиях финансового кризиса//Финансы и кредит. – 2010. – №7 – с. 22-28.

<sup>70</sup> Tijorat banklari tomonidan Markaziy bankka bank nazorati boʻyicha taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarni toʻldirish boʻyicha tavsiyalarga 1-ilova. 3006EN-shakl. www.cbu.uz.

2026-yilga borib hozirgi 200 mln. AQSh dollaridan 7 mlrd. AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan"<sup>71</sup>.

Respublikamiz banklarining aktiv operatsiyalariga aloqador risklarni kamaytirish borasidagi asosiy masalalardan yana biri moliya bozori instrumentlaridan foydalanishning amaliyoti yo'lga qo'yilmaganligi hisoblanadi. Ushbu xulosamiz quyidagi dalillarga tayanadi:

1. Markaziy bank va Davlat qimmatli qog'ozlarining emissiya hajmi kichik ekanligi.

2021-yil davomida muomalaga jami 4,9 trln. so'mlik Moliya vazirligi obligatsiyalari va 24,2 trln. so'mlik Markaziy bank obligatsiyalari chiqarildi. 2022-yil 1-yanvar holatida muomalada 12,1 trln. so'mlik Markaziy bank obligatsiyalari va 4,7 trln. so'mlik Moliya vazirligi chiqargan davlat qimmatli qog'ozlari aylanmoqda.

### **3.2-§. Mamlakat tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish yo'llari**

Dissertatsion tadqiqotning 3.1-paragrafida e'tirof etilgan tijorat banklari aktivlarining rentabelligini ta'minlashga aloqador bo'lgan asosiy muammolarni hal qilishda, fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni bajarishni maqsadga muvofiq:

1. Banklar sof foydasining o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash maqsadida:

birinchidan, sof foizli daromadning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlar hamda qat'iy belgilangan stavkali qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash muhim;

ikkinchidan, muammoli kreditlarning ruxsat etilgan chegaraviy darajadan oshgan qismini banklar balansidan tezkorlik bilan chiqarish kerak;

uchinchidan, foizsiz daromadlarning o'sish sur'ati bilan foizsiz daromad keltiradigan aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

Dunyo bank amaliyotida yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari tan olinadi:

---

<sup>71</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz

- hukumatning qimmatli qog‘ozlari;
- Markaziy bank chiqargan qimmatli qog‘ozlar;
- to‘lovi davlat tomonidan kafolatlanadigan korporatsiyalar qimmatli qog‘ozlari.

Kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplash uchun mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining me‘yoriy ko‘rsatkichlarini ta‘minlash jalb qilingan depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirishda asosiy o‘rinni egallaydi. Sababi shundan iboratki, birinchidan, tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishi kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari miqdorini oshishiga olib keladi; ikkinchi tomondan kreditlar yuqori riskli aktivlar bo‘lgani uchun, banklar aktivlarining tarkibida yuqori ulushni egallaydi; uchinchi tomondan, kredit jarayonlarini moliyalashtirishning asosiy manbai depozitlar hisoblanadi.

Muvozanatlashgan foiz stavkasi konsepsiyasining amalda qo‘llanilishining asosiy fundamental muammosi shundan iboratki, “bu obyekt amalda kuzatilmaydigan obyekt hisoblanadi. Istalgan vaqtda haqiqatan kuzatilayotgan foiz stavkasi (nominal, real) muvozanatlashgan stavka hisoblanadi, sababi, iqtisodiyot har bir alohida davrlarda ma‘lum darajada muvozanatlashgan holatda bo‘ladi. Ammo muvozanatlashgan foiz stavkasi deganda maxsus sharoitlarda shakllantiriladigan ayrim foiz stavkalari nazarda tutiladi. Lekin real hayotda bunday foiz stavkalarini shakllantirishga ishonish qiyinroq deb hisoblanadi.

Neytral/muvozanatlashgan foiz stavkasini aniqlashning standart yondashuvida muvozanatlashgan stavka mahsulotlar ishlab chiqarish va inflyatsiya muvozanat holatida bo‘lganda shakllanadi. Nomi qayd etilgan olimlarning fikricha, muvozanatlashgan stavka, moliyaviy siklning moliyaviy barqarorlikka ta‘siri oqibatlarini hisobga olgan holda, faqat ishbilarmonlik sikli hisobga olingan modellarga nisbatan, yuqori bo‘lishi kerak”<sup>72</sup>.

---

<sup>72</sup> Barsky R., Justiniano A. and Melosi, L. The Natural Rate of Interest and Its Usefulness for Monetary Policy. *American Economic Review*, 2014. – 104(5), – P. 37–43.; Juselius M., Borio C., Disyatat P. and Drehmann M. Monetary Policy, the Financial Cycle, and Ultra-Low Interest Rates. *International Journal of Central Banking*, 2017. –13(3). – P. 55–89.

Ikkinchi murakkablik tomoni shundan iboratki, “hattoki bitta konsepsiya doirasida ham (masalan, neokeyns konsepsiyasi) muvozanatlashgan foiz stavkasi qaysi model (ochiq yoki yopiq iqtisodiyot; moliyaviy taranglikka (siquv)) ega iqtisodiyot yoki tarangliksiz iqtisodiyot) ko‘rib chiqilayotganligiga ko‘ra turli darajaga ega bo‘lishi mumkin”<sup>73</sup>.

Banklar muomalaga chiqaradigan qimmatli qog‘ozlarining investitsion jozibadorligini ta‘minlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

– so‘mning qadrsizlanish darajasi va inflyatsiya darajasini pasaytirish orqali banklaiga o‘z qimmatli qog‘ozlariga investorlar uchun maqbul stavkada foiz to‘lanishi imkoniyatini yaratish kerak;

– sof foizli marja ko‘rsatkichining me‘yoriy darajasini ta‘minlash asosida qimmatli qog‘ozlarga foizlar o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlash lozim;

– tijorat banklarining joriy likvidliligini oshirish orqali qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarni investorlarga o‘z vaqtida hamda to‘liq qaytarilishini ta‘minlash kerak.

Respublika banklarida sof foizli spred ko‘rsatkichlarining me‘yoriy darajasini ta‘minlash uchun:

birinchidan, muddatli hamda jamg‘arma depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘ini oshirish kerak;

ikkinchidan, tijorat banklari tomonidan transaksion depozitlardan bevosita resurs sifatida foydalanishni ta‘qiqlash kerak;

uchinchidan, kreditlarning daromadliligi bilan depozitlarning xarajatliligi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash lozim.

Banklararo kreditlar tijorat banklari uchun nisbatan qimmat resurs hisoblanadi. Shu sababli, banklararo kreditlarning resurslar hajmidagi salmog‘ining yuqori bo‘lishi banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sirni vujudga keltiradi. Buning ustiga, respublikamiz iqtisodiyotiga xorijdan jalb qilingan

---

<sup>73</sup>Wynne M. A. and Zhang R. Estimating the Natural Rate of Interest in an Open Economy. *Empirical Economics*, 2018. – 55(3). – P. 1291–1318.; Eggertsson, G. B. and Krugman P. Debt, Deleveraging, and the Liquidity Trap: A Fisher-Minsky-Koo Approach. *Quarterly Journal of Economics*, 2012. – 127(3). – P. 1469–1513.; Caballero R. J. and Krishnamurthy A. A Dual Liquidity Model for Emerging Markets. *American Economic Review*, 2002. – 92(2). – P. 33–37.

kreditlarning asosiy qismi suzuvchi stavkalarda jalb qilingan. Bu esa, xalqaro kreditlarni to'lashga bog'liq xarajatlarning keskin oshish xavfini vujudga keltiradi.

Banklararo kreditlarning tijorat banklari resurslari hajmidagi salmog'ini pasaytirish uchun ichki resurs manbalari, ya'ni muddatli depozitlar, jamg'arma depozitlar, regulyativ kapital va qimmatli qog'ozlar sotuvidan olingan pul mablag'larining resurslar hajmidagi salmog'ini oshirish lozim.

2. Banklarning qimmatli qog'ozlar orqali amalga oshirayotgan investitsion operatsiyalarining aktiv operatsiyalar hajmidagi salmog'ini oshirish yo'li bilan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ini oshirishni ta'minlash zarur.

Respublika banklarining qimmatli qog'ozlar orqali amalga oshirayotgan investitsion operatsiyalarining rivojlanish darajasi past. 2022-yil 1-yanvar hoaltiga ko'ra, respublika banklari aktivlarining jami hajmida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi atigi 4,4 foizni tashkil etdi.

Respublikamizda inflyatsiya darajasini hamda so'mning qadrsizlanish darajasi nisbatan yuqori ekanligi qimmatli qog'ozlar investitsion jozibadorligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar orqali amalga oshirayotgan investitsion operatsiyalarini takomillashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qimmatli qog'ozlarga bog'liq investitsion operatsiyalarning risk darajasi yuqori ekanligi, qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorlik darajasi past ekanligi, banklarda resurslarning yetishmasligi muammosi mavjudligi, tijorat banklarining "Nostro" vakillik hisobvaraqlarida pul mablag'larining yetishmasligi muammosi mavjudligi banklarda qimmatli qog'ozlar bilan bajariladigan investitsion operatsiyalarni takomillashtirishga to'sqinlik qiladi.

Ta'kidlash joizki, respublikamizda qimmatli qog'ozlarga oid yetarlicha va ishonchli statistik ma'lumotlar bazasi yaratilmagan. Bu esa, chet mamlakatlar bank tajribasida qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishda keng qo'llanilayotgan zamonaviy vositalardan foydalanishga to'sqinlik qiladi.

Bundan tashqari, respublikamiz banklarida hozirgi kungacha qimmatli qog'ozlar portfelini joriy kuzatish muammosi hal qilinmagan.

Fikrimizcha, respublikamiz banklarida qimmatli qog'ozlar bozor narxlarining o'zgarish tendensiyalarini aniqlash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar tizimi shakllantirilmagan.

Taraqqiy etgan mamalakatlar bank amaliyotida "investitsiya portfelini boshqarish jaryonida qimmatli qog'ozlarning birja baholari dinamikasini prognoz qilishda texnik va fundamental tahlil ko'rsatkichlaridan keng foydalanilmoqda"<sup>74</sup>.

Birja savdolari algoritmik jarayonlarining joriy qilinishi ham qimmatli qog'ozlarning bozor baholarini prognoz qilishni sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqa olmadi. Buning sababi shundaki, qimmatli qog'ozlarning bozor baholariga ko'p sonli omillar ta'sir qiladi va har bir omilning ta'sir darajasi turli davriy oraliqlarda turlicha bo'ladi.

### 3. Kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida:

birinchidan, xalqaro reyting agentliklarining reyting baholariga ega kompaniyalarga berilgan kreditlarning risk darajasini standartlashgan yondashuv bo'yicha baholash kerak;

ikkinchidan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan kredit riskini baholash uchun taklif qilingan uchta ko'rsatkichni direktiv ko'rsatkich sifatida tijorat banklarining kredit siyosatida aks ettirish lozim;

uchinchidan, tijorat banklarida kredit riskining umumiy darajasini xalqaro reyting agentliklari tomonidan kredit riskini baholash maqsadida qo'llaniluvchi ikki ko'rsatkich (muammoli kreditlarning kredit portfelidagi darajasi va muammoli kreditlarning kreditlar bo'yicha zaxira va aksiyadorlik kapitali yig'indisiga nisbati ko'rsatkichlari) orqali baholash zarur.

Bazel IIning asosiy talablaridan biri "yetarli darajada zaxira ajratmalari bilan ta'minlanmagan bank kreditlarining risk darajasini oshirishdir". Bu talabning mazmuni shundan iboratki, "kreditlarning qaytarish muddati tugaganiga 90 kun va undan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa, shakllantirilgan zaxira ajratmasi hajmi kredit

---

<sup>74</sup> Валрас Л. Элементы чистой политической экономии / Л. Валрас — М.: Изограф, 2000. — 448 с.

bo'yicha jami qarzdorlikning 20 foizidan kam bo'lsa, u holda, bunday kreditlarning risk darajasi 150 % hisoblanadi. Bu holat, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi ulushi nisbatan yuqori bo'lgan banklarning likvidiligi va kapital bazasining yetarliligiga salbiy ta'sirni keltirib chiqaradi.

Buning sabablari shundan iboratki:

Birinchi, mamlakatimizda kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari to'lig'icha banklarning xarajatiga kiritiladi. Bu o'z navbatida, banklar sof foydasining kapitallashuv darajasi tushshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi, muddati o'tgan kreditlarning 150 % darajasida riskka tortilishi banklarning riskka tortilgan aktivlari miqdori ortishiga olib keladi. Buning oqibatida banklar kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti darajasi tushadi.

Uchinchi, kreditlarning asosiy qismi bankning "Nostro" vakillik hisobvaraqlarini kreditlash orqali bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun, kreditlarning o'z muddatida qaytarilmasligi tijorat bankining likvidli aktivlari miqdori pasayishiga va shu asosida bankning joriy likvidlilik darajasi kamayishiga olib keladi"<sup>75</sup>.

Amerikalik bank nazorati mutaxassisleri tomonidan Bazel I ning ba'zi talablari, shuningdek, kredit riskini baholash talabiga nisbatan jiddiy noroziliklar bildirib kelinayotgan edi. Bazel I da bank tomonidan yuridik shaxslarga beriladigan kreditlarning risk darajasi (ipoteka kreditlaridan tashqari) 100 % qilib belgilangan edi. Banklar tomonidan mamlakatlarga berilgan kreditlarning risk darajasi esa, mazkur davlatlarning Ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zoligi yoki a'zo bo'lmaganligiga ko'ra belgilanar edi. Bu holat, amerikalik mutaxassislarning e'tirozlariga sabab bo'ldi.

Amaldagi AAA dan S gacha tashqi reytinglar mezonida Bazel II" Bdan kam bo'lmagan reytinglarga e'tibor beradi. Bundan past reytingli mijozlarga (ular qaysi

---

<sup>75</sup> Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org/publications>.

tarmoqqa tegishli ekanidan qat'iy nazar) yuqori (150 % miqdorida) baholash koeffitsiyenti qo'llaniladi.

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, shu jumladan Germaniya va Fransiyada kredit riski darajasini baholash uchun Bazel qo'mitasi Bazel II standartida tavsiya etilgan standartlashgan yondashuv bank amaliyotiga qabul qilingan. Bu yondashuvda kredit riskining darajasi kredit oluvchining kredit reytingi darajasiga bog'liq holda belgilanadi.

Mazkur yondashuvga ko'ra, kredit oluvchining suveren kredit reytingi qancha yuqori bo'lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shuncha past bo'ladi. Masalan, suveren kredit reytingi AAA dan AAgacha bo'lgan davlatlarning hukumatlari va Markaziy banklariga berilgan kredit riski darajasi nolga teng, mazkur davlatlardagi kredit tashkilotlariga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 %, yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 % belgilangan.

Suveren kredit reytingi Bdan past bo'lgan davlatlarning hukumatlari, Markaziy banklari, kredit tashkilotlari va yuridik shaxslariga berilgan kreditlarning risk darajasi 150 %ga teng. Bunda xalqaro reyting agentliklarining reyting bahosiga ega bo'lmagan bank mijozlariga ajratilgan kreditlarning risk darajasi 100 % qilib belgilab qo'yilgan.

4. Banklar kredit portfelining diversifikatsiya darajasini ko'tarish maqsadida: birinchidan, kreditlar berishni tarmoq va sohalardagi konsentratsiyasining yuqori chegarasini dunyo bank amaliyotida qo'llanilayotgan shkalalar asosida (25 %) belgilash lozim;

ikkinchidan, tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida chakana depozitlarning ulushini oshirish hisobiga kredit portfelida chakana kreditlarning ulushini oshirish lozim.

Chakana kreditlar banklar kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirishning ishonchli vositasi hisoblanadi.

Kredit portfelini diversifikatsiya qilishda kreditlash limitlarini o'rnatish va kredit risklari uchun ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasini tashkil etishni kreditlashning har bir potensial mijoziga nisbatan stress-testlashni tabaqalashgan yondashuvini



qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreditlarning riskka tortilganlik darajasi pasaytirilishi, korxonadan tomonidan ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira shakllantirish orqali uning kredit yuki va boshqa moliyaviy majburiyatlari nazorat qilinishi hamda bir guruh korxonalar kreditlari bo‘yicha muammoli aktivlar yuzaga kelishini oldi olinish imkonini beradi.

O‘z navbatida, ta’kidlash lozimki, bank risklari turli-tuman bo‘lgan holda kredit risklari doimo o‘z ta’sir darajasi va ahamiyati bilan asosiy e’tiborni o‘ziga jalb etib keladi.

Bank tomonidan taqdim etilgan kreditlar bo‘yicha muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo‘ladi:

qonunchilik tizimidagi o‘zgarishlar;

mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatlar;

soliq va bojxona stavkasidagi o‘zgarishlar;

bank foiz stavkasi yuqoriligi;

baholash tashkiloti tomonidan garovga olingan mulkning haqiqiy bozor qiymatini oshirib ko‘rsatish holatlari mavjudligi;

garovga qo‘yilgan mulkka zarar yetgan holatlarda uni sug‘urta qilgan kompaniya tomonidan zararlangan qiymatning to‘liq qoplab berilmasligi;

bank xodimlarining investitsion kredit taqdim etishdagi huquqiy bilimi, malakasi va tajribasi pastligi;

bankdan kredit olish jarayonining murakkabligi va muddati uzoqligi;

bankdan kredit olishda tanish-bilishlik omilining hamon ustuvorligi;

bankka taqdim etilgan investitsiya loyihasining puxta va real ko‘rsatkichlarga asosan ishlab chiqilmaganligi va ekspertizadan o‘tkazilmaganligi;

loyiha strategiyasi va marketing tadqiqotlari nomukammalligi;

hamkorlarning ishonchsizligi va loyiha boshqaruvi saviyasizligi;

investitsiya loyihalarining turli omillar sababli o‘z vaqtida ishga tushmasligi;

loyiha bo‘yicha texnologiya, xomashyo, mehnat resurslari hamda tovarlar sifatining talab darajada emasligi va raqobatda zaifligi;

qarz oluvchining kreditni qaytarishdagi layoqatliligi tushib ketishi;

korxonaning hududiy joylashuvi, transport-logistika infratuzilmasi, suv, gaz, elektr energiyasi ta'minotidagi muammolar;

mahalliy boshqaruv organlarining asossiz aralashuvi;

investitsion kredit olgan korxonaning xorijdan keltiriladigan xomashyolarga o'ta bog'liqligi;

ushbu korxonadan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga talab pasayib ketishi yoki yo'qligi;

bank investitsion kreditlarini olgan korxonaning loyihada belgilangan quvvatda ishlamasligi;

korxonaning yetarli darajada xomashyo bilan ta'minlanmaganligi;

investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti hajmining tushib ketganligi yoki umuman eksport qilinmaganligi va boshqa omillar.

Har bir mijoz bank kreditidan foydalanishining ruxsat etilgan chegaraviy darajasini aniqlash uchun moliyaviy marja koeffitsiyentini bank amaliyotiga joriy qilish lozim.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining banklari tajribasida moliyaviy marja koeffitsiyenti qo'llanilmaydi. Demak, har bir mijoz tomonidan bank kreditidan foydalanishning ruxsat etilgan chegaraviy darajasini aniqlash imkoni yo'q. Bu kredit riskini boshqarish samaradorligini ta'minlash jihatidan salbiy holat hisoblanadi.

Mijozlarning shunday toifasi mavjudki, ular bir paytning o'zida har xil tijorat bankining kreditlaridan foydalanadilar. Natijada, ular olgan kreditlarni qaytmaslik ehtimoli keskin oshib ketadi. Agar moliyaviy marja koeffitsiyenti hisoblansa, unda mijozning kreditdan foydalanish imkoniyatining ruxsat etilgan chegaraviy darajasini aniqlash mumkin. Pirovard natijada, kredit riski darajasi keskin oshib ketishining oldi olinadi.

5. Banklarda sof foizli marja koeffitsiyentining me'yoriy darajasini ta'minlash uchun:

birinchidan, foizli daromadlarning yalpi daromad miqdoridagi ulushining yetarli va barqaror darajasini shakllantirishsh kerak;

ikkinchidan, sof foizli marjaning darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlarning (sof foizli spred, kreditlardan ehtimol qilingan yo'qotishlar zaxirasi, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyenti, foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik) me'yoriy darajasini ta'minlash lozim.

Mamlakatimiz banklarida sof foizli spred ko'rsatkichining me'yoriy darajasini ta'minlashda:

birinchidan, muddatli hamda jamg'arma depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini oshirish kerak;

ikkinchidan, tijorat banklari tomonidan transaksion depozitlardan bevosita resurs sifatida foydalanishni ta'qiqlash kerak;

uchinchidan, kreditlarning daromadliligi bilan depozitlarning xarajatliligi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

Banklaro kreditlar tijorat banklari uchun birmuncha qimmat resurs hisoblanadi. Shu sababli, banklaro kreditlarning resurslar hajmidagi salmog'ining yuqori darajada bo'lishi banklarning moliyaviy barqarorligiga ko'ra salbiy ta'sirni vujudga keltiradi. Bundan tashqari, respublikamiz iqtisodiyotiga xorijdan jalb qilingan kreditlarning asosiy qismi suzuvchi stavkalarda jalb qilingan. Bu esa, xalqaro kreditlarning to'lanishi bo'yicha xarajatlarning keskin ko'payib ketish xavfini yuzaga keltiradi.

Banklararo kreditlarning tijorat banklarining resurslari hajmidagi salmog'ini pasaytirish uchun ichki resurs manbalari, ya'ni muddatli depozitlar, jamg'arma depozitlar, regulyativ kapital va qimmatli qog'ozlarni sotish orqali shakllantirilgan pul mablag'larining resurslar hajmidagi salmog'ini oshirish lozim.

Sof foizli marja ko'rsatkichi foizli daromadlarning foizli xarajatlarga qay darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Foizli daromadlarning asosiy qismini kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarga to'g'ri kelishi, foizli xarajatlarning katta qismini depozitlar va qat'iy belgilangan stavkaga

ega qimmatli qog'ozlarga sarflanuvchi xarajatlardan iboratligi sof foizli marja ko'rsatkichining bank aktivlari portfeli sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri ekanligidan darak beradi.

6. Banklar yalpi daromadining brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshirish uchun:

birinchidan, foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan barqaror nisbatini shakllantirishga erishish zarur;

ikkinchidan, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyentining me'yoriy darajasini (0,45) ta'minlash kerak; uchinchidan, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan foizli daromadlar miqdori va foizli daromadlar hajmidagi salmog'ini oshirish lozim.

Respublikamiz banklarida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi ulushi juda past bo'lganligi sababli, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan shakllantirilgan foizli daromadlarning umumiy foizli daromadlardagi ulushi juda past.

2022-yil 1-yanvar holatida, respublikamiz banklarining brutto aktivlari hajmida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi atigi 4,4 %dan iborat bo'ldi.

Korporatsiyalar qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning diversifikatsiya darajasini, ilg'or xorij amaliyotida qo'llanilayotgan shkalalar hamda me'yorlar asosida, ta'minlanishi kerak.

Korporatsiyalar qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan investitsiyalarning risk darajasi yuqori bo'lganligi uchun, ularning diversifikatsiya darajasi ta'minlanganligi risklar darajalari oshishining oldini olishda muhim o'rin tutadi.

Xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida banklarning qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiyalashda ikki mezonidan keng foydalaniladi:

- bir emitentning qimmatli qog'oziga qilingan investitsiyalar qimmatli qog'ozlar portfelidagi ulushi;
- qimmatli qog'ozlar portfelining valyutaviy tarkibi.

Fundamental va texnik tahlilni emitentlarning moliyaviy holatini tahlil qilishda keng qo'llash korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni yo'naltirish bilan aloqador risklarni kamaytirish imkonini beradi.

Fundamental va texnik tahlilni amalga oshirish uchun tijorat banking xodimlari yetarli darajada bilim hamda tajribaga ega bo'lishlari lozim. Shu jihatdan, banklarning qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy holatini fundamental va texnik tahlil qilish uchun ma'sul bo'lgan xodimlarning transmilliy banklarda amaliyotdan o'tishlarini tashkil qilish banklarning korporatsiyalar qimmatli qog'ozlariga qilgan investitsiyalari ko'lami hamda sifatini oshirishda asosiy amaliy ahamiyatga ega.

Transnatsional banklarda qimmatli qog'ozlari bilan aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda katta tajriba to'plangan. Aynan qimmatli qog'ozlar uchun amalga oshiriladigan fundamental va texnik tahlilni amalga oshirish borasidagi tajriba transmilliy banklarning bu boradagi tajribasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, transmilliy banklar korporatsiyalar qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarni shakllantirishda asosiy e'tiborlarini qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya darajasi va korporativ qimmatli qog'ozlarning daromadlilikiga qaratadi.

### **3-bob bo'yicha xulosa**

Mamlakat tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bo'yicha quyidagi dolzarb muammolar aniqlandi:

- banklar tomonidan ajratilgan kreditlar tarkibida muddati o'tgan qarzdorlik miqdori katta miqdorda ekanligi (2019-2021-yillar respublikamiz banklari tomonidan ajratilgan kreditlarni jami hajmida muammoli kreditlar salmog'i yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bu ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasi uning ruxsat berilgan darajasidan (3,0 %) yuqori bo'lganligi ko'rinadi. Bu holat banklarning likvidlilikiga ko'ra kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi);

- banklar aktivlarining rentabellik ko'rsatkichlari pastligi (bank aktivlarining rentabellik darajasi past ekanligi, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlari tarkibidagi miqdori yuqori ekanligi, foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar mutanosibligi ta'minlanmaganligi, sof foizli daromadning o'sish darajasi va brutto aktivlar o'sish darajalari o'rtasidagi mutanosiblik mavjud emasligi) singari sabablar orqali tushuntiriladi;

- xorijiy banklar hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan jalb qilingan xorijiy kreditlarning banklar passivlari hajmidagi ulushi yuqori ekanligiga aloqador salbiy holatlarning mavjudligi (xalqaro banklar yuridik shaxslaridan jalb qilib shakllantirilgan depozitlari mamlakatimiz banklariga mablag' sifatida, o'z spreadini qo'yib beradi; pandemiyaning oqibatlari kamayishi xorijiy kreditlarga talab o'sishiga olib keladi hamda suzuvchi foiz stavkasida olingan kreditlarga foiz to'lovi miqdori ko'payadi; so'mning qadrsizlanishi yuqori bo'lgan vaziyatda chet el valyutasida olingan kreditlarga to'lovlar summasi har doim ko'tarilib borish xarakteriga ega bo'ladi);

– foizli xarajatlarning miqdori tahlil amalga oshirilgan davrda yuqori oshish qiymatiga ega bo'lganlik holati;

– tahlil amalga oshirilgan davrda bank majburiyatlari o'sish darajasiga ega bo'lganlik holati;

– bank aktivlari o'sish qiymatining sof foydaning o'sish qiymatidan yuqori bo'lganlik holati;

– kreditlar bo'yicha zararlarni bartaraf etishga qaratilgan zaxira ajratmalari miqdorini tahlil amalga oshirilgan davrda o'sish xususiyatiga hamda yuqori o'sish darajasiga ega bo'lganlik holati.

Respublikamiz banklari aktivlari rentabelligini ta'minlashga oid quyidagicha ilmiy takliflar va amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqarilgan:

1. Tijorat banklari sof foydasining o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash maqsadida, birinchidan, sof foizli daromadning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlar hamda qat'iy belgilangan stavkadagi qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati

o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim; ikkinchidan, muammoli kreditlarning ruxsat etilgan chegaraviy darajaga yetgan qismini banklarning balansidan tezkorlik bilan chiqarishni amalga oshirish kerak; uchinchidan, foizsiz daromadlarning o'sish sur'ati bilan foizsiz daromad keltiruvchi aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

2. Banklarning qimmatli qog'ozlar orqali amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining aktiv operatsiyalar hajmidagi salmog'ini oshirish yo'li bilan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ini oshirishni ta'minlash zarur.

3. Kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida, birinchidan, xalqaro reyting agentliklarining reyting baholariga ega kompaniyalarga berilgan kreditlarning risk darajalarini standartlashgan yondashuv bo'yicha baholash kerak; ikkinchidan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan kredit riskini baholashda taklif qilingan uchta ko'rsatkichni direktiv ko'rsatkich sifatida tijorat banklarining Kredit siyosatida aks ettirilishi shart; uchinchidan, tijorat banklarida kredit riskining umumiy darajasini xalqaro reyting agentliklari tomonidan kredit riskini baholash maqsadida qo'llaniluvchi ikki ko'rsatkich (muammoli kreditlarning kredit portfelidagi darajasi va muammoli kreditlarning kreditlar bo'yicha zaxira va aksiyadorlik kapitali yig'indisiga nisbati ko'rsatkichlari) orqali baholash zarur.

4. Banklar kredit portfeli diversifikatsiya darajasini oshirish uchun, birinchidan, kreditlarning tarmoq hamda sohalarga ajratilishi bo'yicha konsentratsiyasining yuqori chegarasini dunyo bank amaliyotida qo'llanilayotgan shkala asosida (25 %) belgilash lozim; ikkinchidan, tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida chakana depozitlarning ulushini oshirish hisobiga kredit portfelida chakana kreditlar ulushini oshirish lozim.

5. Banklarda sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish uchun, birinchidan, foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining yetarli hamda barqaror darajasini shakllantirish kerak; ikkinchidan, sof foizli marja darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlarning (sof foizli spred, kreditlar uchun

ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyenti, foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik) me'yoriy darajasini ta'minlash kerak.

6. Banklar yalpi daromadining brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshirish uchun, birinchidan, foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan barqaror nisbatini shakllantirishga erishish zarur; ikkinchidan, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyentining me'yoriy darajasini (0,45) ta'minlash kerak; uchinchidan, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan foizli daromadlar miqdori va foizli daromadlar hajmidagi salmog'ini oshirish lozim.



## XULOSA

Dissertatsion tadqiqotni bajarish jarayonida banklar aktivlari rentabelligini ta'minlashga aloqador quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Banklar aktivlarining rentabelligini ta'minlash borasidagi ilmiy-nazariy mulohazalarni tadqiq etish shuni ko'rsatdiki:

– banklarning daromad bazasini baholashda sof foizli marja ko'rsatkichi asosiy o'rinni egallaydi hamda bu ko'rsatkich kreditlar va depozitlar bozorida yuqori darajadagi raqobat uning darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi;

– bank rahbarlari yuqori daromad olish niyatida tavakkal qilishni xohlaydilar, ammo bu bankning omonatchilari manfaatlariga zid bo'ladi;

banklar yalpi daromadlarining jami hajmida foizli daromadlarning ulushi kamida 70 % bo'lishi lozim;

– rivojlanayotgan davlatlarda banklar daromad bazasining holati to'g'ridan-to'g'ri kredit riski darajasiga bog'liq, milliy valyutalarning qadrsizlanishi oqibatida chet el valyutasida kredit olgan yuridik shaxslarni kreditni to'lay olmay qolishlari kredit riski darajasi yanada oshib ketishiga olib keladi;

– har doim ham kutilayotgan samara o'z kapitalidan olinadigan foydadan iborat bo'lmaydi. Uzoq muddatli samarani mo'ljallagan bank mulkdorlari innovatsiyalarni bank faoliyatiga joriy qilish orqali joriy foydaning bir qismini yo'qotadilar;

– tijorat bankining foydasi darajasini tadqiq qilishda bank faoliyatining samaradorligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish lozim hamda ushbu strategiya bank mablag'laridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan maqsadlar, harakatlar majmuasidan iborat;

– agar aktivlarning kichik korrelyatsiyasi (18 %) sharoitida defolt ehtimolini baholash uchun ishonchli intervalning yuqori chegaralarini tanlashning standart metodidan foydalanilsa, u holda, optimal korrektirovka 50-75 % ahamiyatlilik darajasiga muvofiq keladi, katta korrelyatsiya ( $R=24\%$ ) sharoitida – 75-90 % ahamiyatlilik darajasiga mos keladi;

– hozirgi kunda kapitalning yetarlilik darajasini pasaytirish orqali kapitalga mos keluvchi foyda me'yorini ko'paytirishning iloji yo'q. Kuchli raqobat va kredit mablag'larining qimmat ekanligi kapitalning aktivlarga ko'ra optimal darajasini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Shu tufayli, kapitalga to'g'ri keluvchi foyda me'yorini oshirishning bosh zaxirasi bo'lib, aktivlarning qaytimi darajasini oshirish hisoblanadi.

2. Banklar aktivlarining daromad darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili ko'rsatdiki:

– tijorat banklari aktivlarining daromad bazasini baholashda XV F tomonidan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash maqsadida taklif etilgan va 24 ta moliyaviy ko'rsatkichni o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar tizimi o'ziga xos, muhim ahamiyatga ega;

– dunyo bank amaliyotida banklarning daromad bazasiga baho berishda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki mutaxassislari tomonidan taklif qilingan quyidagi ko'rsatkichlardan keng foydalanilyapti: sof foizli spread ko'rsatkichi; foizli daromadlarning daromad keltiradigan aktivlarning o'rtacha qoldig'iga nisbati; foizsiz daromadlarning foizli marjaga nisbati;

– aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi tijorat bankining sof foydasini uning brutto aktivlarga bo'lish va olingan natijani 100 % ga ko'paytirish orqali aniqlanadi hamda bu ko'rsatkichning me'yoriy darajasi belgilanmagan;

– Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan tijorat banklari xarajatlari darajasini tavsiflovchi quyidagi ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan: tijorat banki tomonidan to'langan dividendlar darajasi; mehnat haqi xarajatlarning brutto aktivlarning o'rtacha summasiga nisbatan darajasi; operatsion xarajatlarning brutto aktivlarning o'rtacha summasiga nisbatan darajasi; kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi.

3. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bo'yicha xorij tajribasining tahlili ko'rsatdiki:

– "CAMELS" reyting tizimi doirasida banklarning daromadlarini baholashda tijorat banklariga beshta reyting bahosi berilgan. Bunda eng yuqori

reyingga (1) ega banklarda daromadlar barqarorligi va ularni operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta'minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun yetarliligi asosiy mezonlar sifatida olingan, daromatlari bo'yicha qoniqarsiz reyingga (5) ega banklarda daromadlar yetarli emas va ko'rilayotgan zararlar miqdori katta bo'lganligi sababli kapitalning kamayishi yuz bermoqda;

– Deutsche Bankda sof foizli daromad miqdori 2019-yilda 2018-yilga nisbatan ko'paygan, ammo, 2021-yilda sof foizli daromad miqdori 2020-yildagiga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Deutsche Bankda sof foyda miqdori 2019-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan;

– Bank of America tomonidan berilgan kreditlarning daromadliligi 2017-2021-yillarda sezilarli darajada o'zgarmay, barqaror darajada qolgan;

– Doychebankda 2017-2021-yillarda sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'icha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi juda past bo'lgan, faqat, 2020-yilda ushbu ko'rsatkichning darajasi 2019-yilga nisbatan sezilarsiz darajada (0,2 f.p.) oshgan;

– Paribas bankda 2017-2021-yillarda sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi juda past va barqaror bo'lgan;

– 2017-2021-yillarda Doychebank aktivlarining jami hajmida kreditlar va qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar yuqori salmoqni egallagan;

– Bank of America bankida brutto aktivlarning rentabelligi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 0,2 foizli punktga oshgani holda, regulyativ kapitalning rentabelligi 5,0 %li punktga oshgan;

– Bank of America bankida brutto aktivlarning rentabelligini 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 0,2 %li punktga oshganligi mazkur davrda sof foydaning o'sish darajasi brutto aktivlarning o'sish darajasidan yuqori bo'lganligi, bankdan berilgan kreditlarning o'sish darajasini nisbatan past bo'lganligi sabablari bilan izohlanadi.

4. Tijorat banklari aktivlari rentabelligini tahlil qilish natijalari ko'rsatdiki:

– 2017-2019-yillarda TIF Milliy bankida aktivlarning rentabellik darajasini oshishi kuzatilgan, ammo, 2019-2021-yillarda bu ko‘rsatkich sezilarli miqdorda pasaygan;

– Asakabankda aktivlarning rentabelligi ko‘rsatkichi 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur‘atda pasaygan. Bundan tashqari, tahlil qilingan davr mobaynida Asakabankda aktivlarning rentabellik ko‘rsatkichi darajasi sezilarli miqdorda past bo‘lgan. Mazkur holatlar Asakabank aktivlari rentabelligini oshirish jihatidan salbiy holat sanaladi;

– TIF Milliy bankida 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sof foizli marja hamda bir so‘mlik aktivga mos keluvchi daromad darajasining ko‘rsatkichlari darajasi oshgan;

– TIF Milliy bankida bir so‘mlik aktivga to‘g‘ri keluvchi daromad darajasi 2017-2021-yillarda o‘shish ko‘rinishiga ega bo‘lgan;

– 2017-2021-yillarda Asakabankda kredit portfelining diversifikatsiya darajasi ta‘minlanmagan: kreditlarning 80 %dan ortiq qismi sanoat korxonalariga berilgan kreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi;

– 2017-2021-yillarda TIF Milliy bankida kreditlar bo‘yicha zararlarni bartaraf etishga ajratilgan zaxira miqdorining brutto aktivlarga nisbatan darajasi o‘shish ko‘rinishida bo‘lgan. Bundan tashqari, ushbu ko‘rsatkichning amaldagi darajasi uning me‘yoriy darajasidan yuqori bo‘lgan;

– TIF Milliy banki sof foydasining miqdori 2016-2019-yillarda o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Ammo bankning sof foydasi miqdori 2020-yilda 2019- yilga nisbatan kamaygan;

– TIF Milliy banki aktivlari riskka tortilgan summasining 2016-2020-yillarda o‘shish tendensiyasi kuzatilgan;

– TIF Milliy banki sof foydasining darajasi faqat 2019-yilda me‘yoriy talab darajasida bo‘lgan, ya‘ni 2,0 %dan yuqori bo‘lgan. Qolgan tahlil qilingan yillarda sof foyda darajasi past bo‘lgan;

– O‘zsanoatqurilishbankda kapitalning rentabellik ko‘rsatkichi 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur‘atda (7,1 f.p.) o‘sgan;

– 2021-yilda 2018-yilga nisbatan AT Turonbankda aktivlar rentabelligi ko‘tarilib, yana tushgan va sof foizli marja -0.9 % kamaygan, O‘zmilliybank AJda esa aktivlar rentabelligi 0.3 %ga va sof foizli marja 1.5 % oshgan.

5. Tijorat banklari aktivlari rentabelligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ekonometrik tahlili ko‘rsatdiki:

– ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo‘ysunadi va normal taqsimot grafigining nazariy qiymatlaridan omillarning hisoblangan taqsimot grafiklari asimmetrik holda joylashgan, ya’ni surilgan. Bu siljishlar asosan o‘rganilayotgan omillar dinamikasidagi o‘zgarishlarni ifodalaydi.

– bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari miqdori ( $Y$ ) hfmda kassali aktivlar miqdori ( $X_1$ ) o‘rtasida bog‘lanish zichligi 0,5643 ga teng. Bu esa tijorat bankining kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) va kassali aktivlar hajmi ( $X_1$ ) o‘rtasida o‘rtacha bog‘lanish mavjudligidan darak beradi. Tijorat bankining kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) va kreditlar hajmi ( $X_2$ ) o‘rtasida bog‘lanish zichligininh 0,6398 ga tengligi ushbu ikki omil o‘rtasida o‘rtachadan yuqori bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi;

– bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelning analitik ko‘rinishi quyidagcha bo‘ldi:

$$\hat{Y} = 261277,3 + 0,052X_1 + 0,013X_2 + 0,096X_3 + 1,033X_4 - 0,742X_5 + 0,619X_6,$$

(110017.9) (0.015) (0.005) (0.033) (0.341) (0.315) (0.199)

– hisoblangan ko‘p omilli ekonometrik model ko‘rsatadiki, bankda kassali aktivlar ( $X_1$ ) o‘rtacha bir mln. so‘mga ortsa, bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) o‘rtacha 0,052 mln. so‘mga ortar ekan. Bankning kreditlari hajmi ( $X_2$ ) o‘rtacha bir mln. so‘mga ortsa, kreditlardan olingan foizli daromadlar hajmi ( $Y$ ) o‘rtacha 0,013 mln. so‘mga ortar ekan. Bankning foizli daromadlari ( $X_4$ ) o‘rtacha 1 mln. so‘mga ortishi bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmini ( $Y$ ) o‘rtacha 1,033 mln. so‘mga ortishiga olib kelar ekan. Bankning foizli xarajatlari ( $X_5$ ) o‘rtacha 1 mln. so‘mga ortishi, bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) o‘rtacha 0,742 mln. so‘mga kamayshiga olib kelar

ekan. Bankning boshqa banklardan olingan kreditlarga to'langan foizlarini ( $X_6$ ) o'rtacha 1 mln. so'mga ortishi bankning kreditlardan olingan foizli daromadlari hajmi ( $Y$ ) o'rtacha 0,619 mln. so'mga kamayishiga olib kelar ekan.

6. Respublikamiz banklari aktivlari rentabelligini ta'minlashga aloqador quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

– banklar tomonidan berilgan kreditlar tarkibida muddati o'tgan qarzдорlik hajmining katta ekanligi (2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan ajratilgan kreditlar jami miqdorida muammoli kreditlarning salmog'i o'sgan ekanligini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, 2022-yil 1-yanvar holatiga nisbatan, bu ko'rsatkichning haqiqiy darajasi uning ruxsat etilgan xalqaro me'yorlar ko'rsatkichidan (3,0 %) sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bunday natijalar banklarning likvidliligiga ko'ra sezillarli salbiy ta'sirlarni namoyon etadi);

– tijorat banklari aktivlarining rentabellik darajasi pastligi (banklar aktivlarining rentabellik darajasi pastligiga sabab muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar tarkibidagi darajasi yuqoriligi, foizli daromadlar hamda foizli xarajatlarning mutanosibligi ta'minlanmaganligi, sof foizli daromadlarning o'sish darajasi hamda brutto aktivlarning o'sish sur'atlari orasidagi mutanosiblikning yo'qligi) singari sabablar orqali izohlanadi;

– dunyo banklari hamda xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan xalqaro kreditlarning banklar passivlari hajmidagi salmog'ini yuqori ekanligi bilan aloqador salbiy holatlar mavjudligi (chet el banklarida yuridik shaxslardan jalb qilingan depozitlarini mamlakatimiz banklariga mablag' sifatida, o'z spreadini qo'yib beradi; pandemiya oqibatlarini pasayayotganligi xorijiy kreditlarga talab ko'payishini yuzaga keltiradi hamda suzuvchi stavkalarda jalb qilingan kreditlarning foiz to'lovlari miqdori ortadi; milliy valyutaning qadrsizlanishi yuqori bo'lgan vaziyatda chet el valyutasida olingan kreditlarga foiz to'lovlari miqdori har doim oshib boradi);

– foizli xarajatlarning miqdorining tahlil amalga oshirilgan davrda yuqori o'sish darajasiga ega ekanligi;

– tahlil qilingan davrda banklarning majburiyatlari yuqori o‘shish sur‘atiga ega bo‘lganlik holati;

– banklar aktivlarining o‘shish sur‘atini sof foydaning o‘shish sur‘atidan yuqori bo‘lganligi;

– kreditlarga oid zararlarni qoplash uchun mo‘ljallangan zaxira mablag‘lari miqdorini tahlil qilingan davrda o‘shish xarakteriga hamda sezilarli o‘shish sur‘atiga ega bo‘lganligi.

Respublika banklari aktivlarining rentabelligini ta‘minlashga qaratilgan quyidagicha ilmiy takliflar hamda amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan:

1. Banklar sof foydasining o‘shish sur‘ati bilan brutto aktivlarning o‘shish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash uchun, birinchidan, sof foizli daromadning o‘shish sur‘ati bilan brutto kreditlar va qat‘iy belgilangan stavkadagi qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning o‘shish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash lozim; ikkinchidan, muammoli kreditlarning ruxsat etilgan chegaraviy darajaga yetgan qismini banklarning balansidan tezkorlik bilan chiqarishni amalga oshirish kerak; uchinchidan, foizsiz daromadlarning o‘shish sur‘ati bilan foizsiz daromad keltiradigan aktivlarning o‘shish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash lozim.

2. Banklarning qimmatli qog‘ozlar orqali amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining aktiv operatsiyalar hajmidagi salmog‘ini oshirish yo‘li bilan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog‘ini oshirishni ta‘minlash zarur.

3. Kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida, birinchidan, xalqaro reyting agentliklarining reyting baholariga ega kompaniyalarga berilgan kreditlarining risk darajalarini standartlashgan yondashuv bo‘yicha baholash kerak; ikkinchidan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan kreditlar riskini baholash uchun taklif qilingan uchta ko‘rsatkichni direktiv ko‘rsatkich sifatida tijorat banklarining kredit siyosatida aks ettirishi kerak; uchinchidan, tijorat banklarida kredit riskining umumiy darajasini xalqaro reyting agentliklari tomonidan kredit riskini baholash maqsadida qo‘llaniluvchi ikki ko‘rsatkich

(muammoli kreditlarning kredit portfelidagi darajasi va muammoli kreditlarning kreditlar bo'yicha zaxira va aksiyadorlik kapitali yig'indisiga nisbati ko'rsatkichlari) orqali baholash zarur.

4. Banklar kredit portfeli diversifikatsiyasi darajasini oshirish uchun, birinchi navbatda, kreditlarning tarmoq hamda sohalar bo'yicha konsentratsiyasining yuqori chegarasini dunyo bank tajribasida amal qilayotgan shkalalar asosida (25 %) belgilash lozim; ikkinchidan, tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida chakana depozitlar ulushini oshirish hisobiga kredit portfelida chakana kreditlar ulushini oshirish lozim.

5. Banklarda sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish uchun, birinchidan, foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining yetarli va barqaror darajasini shakllantirish kerak; ikkinchidan, sof foizli marjaning darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlarning (sof foizli spred, kreditlar bo'yicha ehtimolli yo'qotishlar zaxirasi, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyenti, foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik) me'yoriy darajasini ta'minlash lozim.

6. Tijorat banklari yalpi daromadining brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshirish uchun, birinchidan, foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan barqaror nisbatini shakllantirishga erishish zarur; ikkinchidan, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyentining me'yoriy darajasini (0,45) ta'minlash kerak; uchinchidan, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan foizli daromadlar miqdorini va foizli daromadlar hajmidagi salmog'ini oshirish lozim.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: 03/19/582/4014-son. 12.11.2019-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida (yangi tahriri)//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: 03/19/580/3994-son. 06.11.2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – №36.– 945-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015. - №28. 22-33-b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 3-iyulda 2692-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnoma. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015. - №26. 92-98-b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2003-yil 11-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 24-yanvarda 1304-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)

“Foizlarni o‘stirmaslik to‘g‘risida”gi nizom. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. 632-639-b.

7. Translation of: Financial Soundness indicators: Compilation Guide. International Monetary Fund, 2007. ISBN 1-58906-401-0. [www.imf.org](http://www.imf.org).

8. Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

9. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital standards. – Basel, 1998. <http://www.bis.org.publications>.

10. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org.publications>.

11. Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org.publications>.

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar**

1. Волошина О.Б. Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения. //Известия высших учебных заведений. – Поволжский регион, 2014. - №1. – С. 168-172.

2. Валенсева Н.И. сенообразование на рынке банковских услуг. // Банковское дело. – Москва, 2013. – №11. – С. 37 – 44.

3. Дудин Е.В. Динамика прибыли российских банков в условиях экономического спада. // Научное обозрение. – Москва, 2016. - № 10. – С. 139-141.

4. Дорофеев В. Д. Стратегическое планирование коммерческого банка. //Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки. – 2013. – № 2 (26) – С. 167-171.

5. Куницина, Н. Н. Бизнес-планирование в коммерческом банке. – М.: Финансы и статистика, 2007. – 304 с.

6. Кумок С.И. Анализ деятельности коммерческих банков. – М.: Вече, 1996. – 263 с.
7. Лаврушин О.И. Развитие банковского сектора и его инфраструктуры в экономике России. – М.: КНОРУС, 2017. – 176 с.
8. Лещукова И. В. Прибыль коммерческого банка и ее источники. // Инновационная наука. – Москва, 2017. - № 5. - С. 114 – 116.
9. Литвинов Е.О. Кредитное бремя населения России: вопросы теории и методологии. Монография. – Волгоград, 2012. – 276 с.
10. Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. / Пер. с англ. – Вашингтон: ИЕР, 1994. – 374 с.
11. Меликян Г. Г. Актуальные вопросы капитализации, устойчивости и конкурентоспособности российского банковского сектора. //ХВИ Международный банковский конгресс. УРЛ: [хттп://www.сбр.ру/публ/МонеяндСредит/Меликян. pdf](http://www.сбр.ру/публ/МонеяндСредит/Меликян.pdf).
12. Овчинникова О. П., Бес А.Ю. Основные направления обеспечения динамической устойчивости банковской системы. //Финансы и кредит. – Москва, 2006. – № 22. – С. 2-11.
13. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. / Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2017. – 1018с.
14. Тихонков К.С. Обеспечение устойчивости и безопасности банковской системы России при переходе к модернизационному развитию. – М.: Дело, 2010. – 286 с.
15. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и оператсии. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.
16. Уразова С. А. Устойчивост банковской системы: теоретические и методологические аспекты. //Банковское дело. – Москва, 2006. – № 12. – С. 26-32.
17. Уерто де Сото Хесус. Денги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008. – 666 с.

18. Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – 351с.

19. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump. //Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726.

20. Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations. // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2–3). – pp. 423–444.

21. Wei L., Yuan Z. The Loss Given Default of a Low-Default Portfolio with Weak Contagion//Insurance: Mathematics and Economics. – 2016. – Vol. 66. – pp. 113 -123.

22. Tasche D. Bayesian Estimation of Probabilities of Default for Low Default Portfolios//Journal of Risk Management in Financial Institutions. – 2013. – Vol. 6(3). – pp. 302–326.

23. Mishkin F.S. Global Financial Instability: Framework, Events, Issues. //Journal of Economic Perspectives. 1999. No 4. Vol. 13.

24. Correa R. and Goldberg L. S. Bank Complexity, Governance, and Risk. NBER Working Papers, 2020. – N 27547. – 43 r.

25. Chernobai A., Ozdagli, A. and Wang J. Business Complexity and Risk Management: Evidence from Operational Risk Events in U.S. Bank Holding Companies. Journal of Monetary Economics, 2020. – Article in press. doi: 10.1016/j.jmoneco.2020.02.004.

### **III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

1. Abdullayev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 73 b.

2. Банковское дело. Учебник. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.

3. Berdiyarov B.T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidiligi va to‘lov qobiliyatini ta‘minlash masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 73 b.
4. Isakov J.Ya. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – 79 b.
5. Majidov J.K. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini oshirish yo‘llari. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 54 b.
6. Xolmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 56 b.
7. Bank nazorati bo‘yicha hisobotlarni to‘ldirish bo‘yicha tavsiyalar. 3006EN-shakl.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot//www.cbu.uz.
9. Milliy valyutadagi depozitlarning foiz stavkalari. //www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
10. Chet el valyutasidagi depozitlarning foiz stavkalari. //www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
11. Milliy valyutadagi kreditlarning foiz stavkalari. //www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
12. Chet el valyutasidagi kreditlarning foiz stavkalari. //www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. //www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).

16. Markaziy bank Raisi M.B. Nurmuratovning 2022-yil 27-oktabrdagi Markaziy bank boshqaruvi yig'ilishi natijalari yuzasidan tashkil etilgan matbuot anjumanidagi ma'ruzasi//[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki).

17. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi//[www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi).

18. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar. //[www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)

19. Статистический бюллетен Банка России//[www.сбр.ру](http://www.сбр.ру) (Центральный банк Российской Федератсии).

20. TIF Milliy banki. Balans hisoboti. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.nbu.uz](http://www.nbu.uz)

21. TIF Milliy banki. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.nbu.uz](http://www.nbu.uz)

22. Asakabank. Balans hisoboti. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021. [www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz)

23. Asakabank. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz)

24. Asakabankning bank nazorati bo'yicha hisobotlariga 1-ilova. Кредиты и лизинги к получению по отраслям экономики, типам клиентов и по типу обеспечению //[www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz)

25. Sanoatqurilishbank. Balans hisoboti. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.sqb.uz](http://www.sqb.uz)

26. Sanoatqurilishbank. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.sqb.uz](http://www.sqb.uz)

27. Deutsche Bank. Concolidated Balance Sheet. Annual Report. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.db.com](http://www.db.com)

28. Deutsche Bank. Concolidated Statement of income. Annual Report. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.db.com](http://www.db.com).

29. Bank of America. Concolidated Balance Sheet. Annual Report. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021//[www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com)
30. Bank of America. Concolidated Statement of income. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021. //http://www.bankofamerica.com
31. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.
31. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki.
33. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
34. [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz) – TIF Milliy banki (O‘zbekiston).
35. [www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz) – Asakabank (O‘zbekiston).
36. [www.sqb.uz](http://www.sqb.uz) – Sanoatqurilishbank (O‘zbekiston).
37. [www.db.com](http://www.db.com) – Deutsche Bank (GFR).
38. [www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com) – Bank of America (AQSh).